

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 52 (1651), 2026-yil 18-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – UCH MING YILLIK TARIX VA MADANIYATIMIZNING SO‘NMAS OVOZI

17-mart kuni Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilishi va iftorlik marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.



Islom sivilizatsiyasi markazi asrimizning ma‘rifat mayog‘i! U hozir insoniyat katta ehtiyoj sezayotgan tinchlik, bag‘rikenglik va ishonchli do‘stlik ramzi! Yangi O‘zbekistonning ilmiy-ma‘rifiy yuksalishi, Uchinchi Rennans poydevori. Ushbu markaz faqat tarixdan so‘zlaydigan zamonaviy majmua emas. O‘tmishni bugun bilan bog‘lab, hozirgi kunlarimizni yorqin kelajak kafolatiga

aylantiradigan tom ma‘nodagi ilm-ma‘rifat maskanidir.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilayotgani haqida so‘zlagan edi. O‘shanda muqaddas dinimiz insoniyatni faqat va faqat ezgulik va tinchlik, asl insoniy fazilatlarini asrab-

avaylash, ilm-ma‘rifatga da‘vat etishi ta‘kidlangandi.

Mamlakatimiz yetakchisi 2018-yil 15-iyun — Ramazon hayiti kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga ramziy tamal toshi qo‘ygan yodimizda. Bu yil yana muborak Ramazon oyining qutlug‘ kunlarida — mamlakatimizda qo‘shaloq bayram shukhi kezib yurgan kezlarda ushbu markazning rasmiy ochilish

marosimi bo‘lib o‘tdi. Bunda hayotning go‘zal ramzi, yaxshi amallar oyidan nur olgan maskan dunyo ahlini ezgulikka chorlaydigan tamaddun maydoniga aylanishidan dalolat, nazarimda.

O‘tgan yillarda markaz ana shu yuksak g‘oya va maqsadlarning amaliy ifodasi o‘laroq qad rostladi. Mazkur muhtasham loyiha xalqimizning uch ming yillik tarixi, bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma‘rifiy merosini qamrab olgan. Ayni paytda zamonaviy texnik imkoniyatlarga va ishonchli, boy tarixiy manbalarga ega ilmiy markaz ajdodlar merosini chuqur o‘rganish va keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

— Bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o‘zining qanday ulug‘ meros egasi ekanini his etib, qalbi g‘urur va iftixorga to‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mahobati, maydoni va qamroviga ko‘ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va tamaddunlari o‘rganish hamda targ‘ib etishga qaratilgan yirik majmualardan. Uning zamonaviy texnologiyalar bilan jibozlangani shonli tarixni ko‘z oldimizda jonlantirish, manbalardan tez va samarali foydalanish imkonini beradi. Shu jihati bilan ham markaz shonli o‘tmishdan quvvat olib, yorqin kelajak sari odimlayotgan yangi O‘zbekiston qiyofasini aks ettiradi.

Markaz binosi mamlakatimiz yetakchisining me‘moriy g‘oya va takliflari asosida loyihalashtirilgan. Qurilish jarayonida davlatimiz rahbari ushbu majmua bir necha bor tashrif buyurib, bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Har safar uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo‘lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini berdi. Xususan, 2025-yilning o‘zida Prezidentimiz markazga bir necha marta kelib, ekspozitsiyalar, infratuzilma, ma‘rifiy

va ilmiy yo‘nalishlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim ko‘rsatmalar berdi.

Prezidentimiz kuni kecha mazkur majmua tashrif buyuray ekan, yaratilgan sharoitlar, boy ekspozitsiyalar va yangi tashabbuslar bilan tanishdi. Dastlab markazning ma‘naviy qalbi bo‘lgan Qur‘oni karim zali bilan tanishildi. Unda yaratilgan ma‘naviy muhit va noyob ekspozitsiyalar ko‘zdan kechirildi.

Markazning to‘liq zamonaviy texnologiya asosida bunyod etilgani mazkur zalda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gumbaz ostida maxsus mepping gologrammasi o‘rnatilgan. Unda koinot tasviri namoyon bo‘lib, yulduzlar jilolanadi. E‘tiborlisi, ular Toshkent osmonida ko‘rinadigan yulduzlar xaritasi asosida shakllantirilgan. Ulami ifoda etish uchun 90 dona “svarovskiy” toshi va 650 dan ortiq chiroqdan foydalanilgan. Bu zalga ulug‘vorlik bag‘ishlash barobarida, milliy o‘zligimizni ilmiy asosda namoyon etadi.

Zaldan Usmon Mus‘hafi bilan bir qatorda Qur‘oni karimning yurtimizga tegishli bo‘lgan, turli sulolalar davrida bitilgan nodir qo‘lyozmalar jamlangan. Ular orasida somoniylar, qaraxoniylar, g‘aznaviylar, temuriylar, shayboniylar va boshqa davrlarga mansub noyob nusxalar bor. Bu qo‘lyozmalar Sharq kitobat san‘atining yuksak namunalarini sifatida nafaqat diniy, balki ulkan tarixiy, ilmiy va badiiy qiymatga ham ega. Zaldagi zamonaviy vitrinalardan xalqimiz orasida asrab-avaylab saqlab kelingan va markaz fondiga taqdim etilgan asl qo‘lyozmalar ham munosib o‘rin olgan.

Bugun ko‘z o‘ngimizda qarashlar, qadriyatlar o‘zgarib boryapti. Tarix bunday vaziyat insoniyat uchun yangilik emasligini bot-bot ta‘kidlaydi. Ana shu murakkab vaziyatdan omon o‘tish doim o‘zlikni asrash, yangicha qarash bilan ruhiy, jismoniy quvvat to‘plashni talab etadi. Ko‘hna dunyo solnomalari yana bir haqiqatni ochadi: shunday murakkab vaziyatlarning aksariyatidan dunyo xalqlari

Sharqda porlagan ma‘rifat mayog‘i sabab omon chiqqan.

Masalan, bundan 3000 yil avval ajdodlarimiz insoniyatga tortiq etgan “Avesto” ham ayni maqsadga xizmat qilgan. Aytishlaricha, o‘sha davrda turli g‘oyalar, aqidalar avj olgan. Shunda ajdodlarimiz “Avesto” timsolida umuminsoniy g‘oya, insonparvarlik falsafasi ila ezgulik jamiyatiga asos solgan.

Xuddi shunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Jumladan, ikkita Uyg‘onish davri mutafakkirlari dunyo tamaddunida alohida o‘rin egalladi. Xususan, ulug‘ ajdodlarimiz islom dini ravnaqiga katta hissa qo‘shdi. Jumladan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy singari buyuk ajdodlarimiz gumanizmga asoslangan bebaho meros qoldirgan. Bu meros nafaqat tarixdagi bahslar, balki bugungi anglashilmovchiliklar uchun ham ilmiy asosdagi ma‘rifiy javobdir.

Ushbu muhtasham markaz esa yangi O‘zbekiston ajdodlar merosiga munosib vorislik yo‘lidan dadil borib, dunyoni yana bir bor ma‘rifatga chorlayotganining tasdiq‘idir. Bu maqsadga tarixni chuqur tahlil etib, zamonaviy ilmlarni o‘rganib, qalbni ajdodlardan meros ma‘rifat nuri bilan yoritib erishish mumkin. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu jihatlar to‘la qamrab olingani bilan ahamiyatidir.

Markaz qadimiy va milliy me‘morchilik an‘analari asosida qurilgan. Unga to‘rt tomondan — to‘rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravonlari Qur‘oni karimdagi ilm-ma‘rifat, bag‘rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi oyatlar hamda hadislar bilan bezatilgan. Shu ma‘noda, binoning istalgan tarafidan kelsangiz ham sizni buyuk ajdodlarning bunyodkorlik merosi va ma‘rifiy chaqirig‘i qarshi oladi.

Davomi 2-beta

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINING RASMIY OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar!

Avvalo, sizlarni, joylardagi studiyalar orqali bugungi iftorlik marosimida ishtirok etayotgan hurmatli nuroniyalar, olimu ulamolalar, keng jamoatchilik vakillarini, butun xalqimizni muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor chin qalbindan tabriklayman.

Shu ulug‘ ayym kunlariga barchamizni tinch-omon, sog‘-salomat yetkazgani uchun Alloh taolaga behad shukr bo‘lsin!

Mehr-oqibat va ezgulik ramzi bo‘lmish Ramazon oyida hammamiz birgalikda ko‘plab savobli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Davlat va nodavlat tashkilotlar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mahallalar uyushmasi, musulmonlar idorasining “Vaqf” jamg‘armasi, hududlardagi “Inson” markazlari, saxovatli tadbirkorlarimiz tomonidan keksa va nogironlar, kam ta‘minlangan oilalarga, ko‘makka muhtoj insonlarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatmoqda.

Tibbiyot bo‘limlari olis va chekka hududlarimizga borib, ayollar, bolalar va

nuroniyalarimizni ko‘rikdan o‘tkazmoqda, og‘ir bemorlar operatsiya yo‘li bilan davolanmoqda.

Mana shunday fayzli barakali kunlarda mamlakatimiz miyosida iftorlik tadbirlarini o‘tkazish ham yaxshi an‘anamizga aylandi.

Albatta, bularning barchasi jamiyatimizda inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va umummilliy birlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi iftorlik marosimida yurtimizdagi turli millat va diniy konfessiyalar namoyandalari ishtirok etayotgani ham shundan dalolat beradi.

Hozirgi g‘oyat tahlilki zamonda tinchlik naqadar ulug‘ va bebaho ne‘mat ekanini, 38 milliondan ziyod aholimizning yagona xalq, ahil bir oila bo‘lib yashayotgani eng katta boyligimiz ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Davramizda O‘zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham qatnashayotganini biz dinimizning gumanistik va bag‘rikenglik qadriyatlariga, davlatimizning ochiqchilik siyosatiga hurmat-e‘tibor ifodasi sifatida qabul

qilamiz va ularga samimiy tilaklarimizni bildiramiz.

Qadrlil vatandoshlar!

Bugungi Ro‘zai Ramazon kunida barchamiz yana bir tom ma‘noda tarixiy voqeada ishtirok etmoqdamiz. Xalqimizning aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan bunyod etilgan ulug‘vor va noyob majmua — O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimini o‘tkazmoqdamiz.

Ne-ne ajdodlarimizning orzu-niyatlari, armonlari ro‘yobga chiqqan mana shunday unutilmas kun bilan, chinakam ilm-ma‘rifat bayrami bilan hammangizni chin qalbindan tabriklayman.

Mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyatining, Yangi O‘zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko‘zgusi bo‘lgan ushbu betakror va buyuk majmua barchamizga, butun xalqimizga muborak bo‘lsin!

Muhtaram do‘stlar!

Biz yurtimizda rivojlangan davlat, erkin jamiyat poydevorini bunyod etish uchun, eng avvalo, ilm va ilm, ta‘lim va yana bir bor

ta‘lim degan oliy maqsadni hayotimizga joriy etmoqdamiz. Zero, muqaddas dinimiz ham bizni doimo ilmu ma‘rifatga da‘vat etadi. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug‘bek darvozasi peshoqiga Qur‘oni karimning “Iqrol” — ya‘ni “O‘qil!” degan muborak oyatini muhrlab qo‘ydim. Bu ilohiy so‘zlar zamirida islom dinining asl ma‘no-mazmunini mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Xabaringiz bor, bundan to‘qqiz yil oldin mazkur majmuaning barpo etish haqida maxsus qaror qabul qilib, amaliy ishlarni boshladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e‘lon qilingan bu ezgu tashabbusimiz jahon jamoatchiligi, ayniqsa, islom hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Biz bu har jihatdan ulkan loyihani amalga oshirish uchun shoshilmadik, yetti emas, yetmish marta o‘ylab, uzoqni ko‘zlab, tinimsiz izlandik. Nihoyat, qadimdan Toshkentni azimning ma‘naviy markazi bo‘lib kelgan Hazratlari Imom majmuasi yonida, ko‘rib turganingizdek, betakror arxitektura, chinakam milliy ruh va

milliy qiyofaga ega bo‘lgan sharqona shaharcha barpo etildi.

Ushbu Markazda O‘zbekistonning qadimiy tarixi va sivilizatsiyasi durdonalarini bir paytning o‘zida yagona ma‘rifiy makonda ko‘rish, shu asosda o‘zbek xalqining intellektual va madaniy salohiyatini yaqqol anglash mumkin.

**Bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o‘zining qanday ulug‘ meros egasi ekanini his etib, qalbi g‘urur va iftixorga to‘ladi.**

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Azaldan turli sivilizatsiya va madaniyatlar tutashgan mintoqada joylashgan yurtimiz zaminini Buyuk ipak yo‘li rivojida muhim o‘rin egallagan. Ko‘hna diyorimiz islomgacha bo‘lgan davrda ham ilm-fan, ma‘rifat markazi sifatida shuhrat qozongan. Qadimiy Turkiston o‘lkasiga islom dini kirib kelgach, bu yerda hadis va kalom ilmi, musulmon huquqi, tasavvuf bo‘yicha yirik maktablar shakllandi, o‘nlab buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Davomi 2-beta

## AHOI DAROMADI 10 FOIZ OSHSA, ISTE‘MOL 8 FOIZ KO‘PAYADI

Iqtisodiyot tashqi bozorlardan emas, ichki ishonchdan kuch oladi. Agar bu ishonch yo‘qolsa, ochiq chegaralar ham, qulay savdo bitimlari ham iqtisodiyotni qutqara olmaydi. Bugun jahon iqtisodiy manzarasi aynan shu haqiqatni keskin eslatmoqda. Geosiyosiy qarama-qarshiliklar, savdo cheklavlari va global logistikadagi uzilishlar sharoitida tashqi bozorlar imkoniyat emas, balki tavakkal omiliga aylanib bormoqda.

Dunyo iqtisodiyoti endi “kim ko‘proq eksport qiladi?” degan savoldan “kim ichki talabni saqlab qola oladi?” degan savolga o‘tyapti. Chunki inqiroz sharoitida ishlab chiqarish emas, balki sotib olish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agar ichki bozorda talab bo‘lmasa, fabrikalar ham ishlamaydi. Iste‘molchi kutish holatiga

Davomi 3-beta

o‘tasa, iqtisodiyot ham kutish rejimiga kiradi.

Ichki bozor ko‘pincha iqtisodiy siyosatda ikkilamchi masala sifatida ko‘riladi. Aslida esa u barcha iqtisodiy jarayonlarning boshlanish nuqtasidir.



## MAHALLIY BUDJET MABLAG‘I MAQSADLI SARFLANYAPTIMI?

Hududlarning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligi ko‘p jihatdan mahalliy byudjet mablag‘larining qanday shakllantirilishi va qay tarzda sarflanishiga bog‘liq. Binobarin, maktablar qurilishi, tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish, ichki yo‘llarni ta‘mirlash yoki ichimlik suv tarmoqlarini yangilash kabi ishlar aynan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladi. Shu jihatdan mahalliy byudjet bugun nafaqat moliyaviy resurs, balki hudud taraqqiyotini ta‘minlovchi strategik mexanizmga aylanmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimini modernizatsiya qilish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish hamda mahalliy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, byudjet jarayonini yanada ochiq va shaffof tashkil

etish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Davomi 3-beta

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINING RASMIY OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Xalqaro ekspertlar e’tirof etganidek, bugun O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasi merosini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha o‘ziga xos katta ilmiy maktab yaratishga erishdik. Naqadar katta imkoniyatlarimiz, intellektual salohiyatimiz borligini dunyoga namoyon eta oldik.

Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi.

Ushbu noyob majmua salkam 10 gektar hududda joylashgan bo‘lib, binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu yerda “O‘zbekiston zaminida islomgacha bo‘lgan davr”, “Birinchi va Ikkinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori” kabi ekspozitsiya zallari mavjud.

Albatta, ularning har biri haqida uzoq gapirish mumkin.

Muzey ekspozitsiyasini shakllantirish va boyitish bo‘yicha ham katta ishlar qilindi. O‘tgan yilning o‘zida 1,5 mingdan ortiq eksponat, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar ekspozitsiyaga joylashtirilgani ham shundan dalolat beradi.

Ayni vaqtda xorijiy auksion uylari, yirik kolleksioner va art dilerlar bilan hamkorlik o‘rnatilib, 743 ta eksponatning original, ya‘ni asli nusxalari yurtimizga keltirildi.

Bunday ishlar ilgari tariximizda bo‘lmagan edi.

Bu eksponatlarning har biri — buyuk o‘tmish va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning timsoli ekanini ta’kidlash lozim. Ularning barchasi zamonlar sinovidan mardona o‘tib kelayotgan xalqimiz, milliatimizning ongu tafakkuri, bunyodkorona mehnati, noyob mahorati haqida so‘zlaydi.

**Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma’rifat, taraqqiyot va adolat bo‘ladi. Hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashilmaydi!**

Markazning asosiy zali, ta’bir joiz bo‘lsa, qalbi — bu, hech shubhasiz, muqaddas Qur‘on zalidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy 6

ta Qur‘oni karimning biri bo‘lgan mo‘tabar Usmon Mus‘hafi bugun o‘zining yuksak maqomiga munosib sharafli o‘rin topdi.

Shuningdek, ushbu zalda turli davrlarga oid nodir Qur‘on qo‘lyozmalari ham jamlangan. Shu munorak kunda barchamiz, Xudoning inoyati bilan, mana shunday noyob va muqaddas Usmon Qur‘onining ilohiy sharofati bilan yurtimiz doimo tinch-osoysishta bo‘lsin, hayotimiz qut-barakaga to‘lsin, deb duo qilamiz. Qadrli do‘stlar!

Islom sivilizatsiyasi markaziga 2025-yilning o‘zida minglab xorijiy mehmonlar tashrif buyurgani uning hozirdanoq jahon miqosida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otayotganini tasdiqlaydi. Mehmonlar orasida bir qator davlatlar prezidentlari, parlament va hukumat rahbarlari, deputatlar, senator va lordlar, vazirlar va elchilar, ilm-fan va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari borligini ta’kidlash lozim.

Markazni loyihalash, qurish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa qator mamlakatlardan yuksak malakali mutaxassislar ham faol ishtirok etishdi.

Ushbu majmuani bunyod etishga munosib hissa qo‘shgan loyihachi va quruvchilarga, mohir muhandislarga, olimu ulamolarga, xorijiy hamkor va ekspertlarga, jumladan, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati a‘zolariga, barcha fidoyi insonlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Bunday yirik va murakkab madaniy inshootni qurishda homiylik yordamini ko‘rsatgan mahalliy va chet ellik tadbirkorlar, rahmatiyat va sport namoyandalari alohida rahmat aytaman. Xususan, birinchi qatorida tashabbus ko‘rsatib, zarur mablag‘, g‘oyaya va noyob tarixiy eksponatlar taqdim etgani uchun hurmatli vatandoshimiz, mashhur metsevan va biznesmen Alisher Burhonovich Usmonovga samimiy tashakkur izhor etaman.

Xalqimiz bunday olijanoblik, saxovat va e’tiborni yuksak qadrlaydi.

Bu ulug‘ ishga qo‘shgan hissangizni hech qachon unutmaymiz.

Katta rahmat Sizga! Aziz yurtdoshlar!

Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishar ekamiz, men, dunyoning qayerida bo‘lmasin, tariximizga tegishli bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, bitta eksponat bo‘lsa ham topib, yurtimizga olib kelishni orzu qilgan va shu vazifani o‘rtaga qo‘ygan edim. Ming shukrki, bugun ana shu maqsadimizga asta-sekin erishyapmiz. Bu ishlarni, albatta, davom ettiramiz.

Jahonning turli mamlakatlarida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalarni aniqlash va o‘rganish uchun yana xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etamiz. Buning uchun zarur mablag‘ va imkoniyatlarni topamiz. Bu ishlarga mahalliy va xorijiy olimlar, yetakchi xalqaro ilmiy markazlarni jalb etamiz.

Markaz faoliyatini keng miqosda yo‘lga qo‘yish maqsadida bu yerda AYESKO, IRSIKA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiya’dagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ular uchun ofis xonalari tashkil etdik. Endi ular bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz.

Markazda muqaddas dinimizning ezgu qadriyatlarini asrab, diniy-ma’rifiy soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston musulmonlari idorasi ham o‘zining yangi qarorgohiga ega bo‘ldi.

Bu dargohda islom merosini chuqur o‘rganish, diniy xodimlar, imom-xatibalarning malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ishlarini tashkil etish, o‘ylaymanki, maqsadga muvofiqdir.

Biz yaqin kelgusida BMT qarorgohida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining taqdimotlarini ham o‘tkazamiz.

Muxtasar aytganda, ushbu Markaz ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi faoliyatimiz uchun fundamental baza bo‘ladi. O‘zbekiston

xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari yuqori kurslarni shu yerda o‘qiydi, o‘qituvchidomalar esa o‘z bilim va malakasini oshiradi.

Markaz yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug‘beklar, farg‘oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyalar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma’naviy maydon bo‘lishi kerak. Bu — barchamizning ezgu niyatimizdir. Markaz o‘zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma’naviyat fidoyilariga — hurmatli olim va tadqiqotchilarga, shoir va adiblar, diniy ulamolara, rejissyor va rassomlar, jurnalistlarga, ijodkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman.

Islom sivilizatsiyasi markazida to‘plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hamdandan ko‘ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ‘ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz. Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko‘rsatuvlar: uch ming yillik tarix va madaniyatning so‘nmas ovozi bo‘lib dunyoga taralsin!

Yangi O‘zbekistonda tinchlik, ezgulik, bilim va ma’rifat diyorini sifatida olamga tarannum etsin! Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g‘urur maktabiga aylansin!

Hurmatli anjuman qatnashchilari! O‘z davrida Mir Alisher Navoiy bobomiz Mirzo Ulug‘bekning o‘lmas merosi dunyo turguncha tursin deb tilak bildirgan edi. Bizning ham orzu-maqсадimiz shunday: Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qilsin!

Mana shunday ulug‘ ishlarning bunyodkori bo‘lgan mard va olijanob xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Muqaddas Ramazon oyida tutayotgan ro‘zalarimiz, qilayotgan ibodatlarimiz dargohida qabul bo‘lsin!

Yaratgan Parvardigor xalqimizni, Vatanimizni o‘z panohida asrasin!

Barchangizga katta rahmat, doimo sog‘-omon bo‘linglar!



# “Forbes”:

## ISLOMNING BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINI ILGARI SURUVCHI PLATFORMA

### AMERIKANING NUFUZLI JURNALI MARKAZ HAQIDA YOZMOQDA

Dunyodagi eng nufuzli va mashhur iqtisodiy nashrlardan biri — Amerikaning “Forbes” jurnalida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishiga bag‘ishlangan maqola e’lon qilindi.

Jurnalda ta’kidlanishicha, geosiyosiy beqarorlik va iqtisodiy muammolar yuz berayotgan pallasda O‘zbekiston o‘zining madaniy va strategik ta’sirini kuchaytirish orqali muhim qadam tashladi. Yangi barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatning boy tarixiy merosi va butun Yevrosiyo bo‘ylab islomiy intellektual va madaniy an’analarni shakllantirishdagi rolini namoyish etadigan muhim loyihaga aylanmoqda. “Forbes”ning yozishicha, shiddatli texnologik o‘zgarishlar va global keskinliklar davrida ushbu markaz musulmon dunyosida konstruktiv mulqot maydoni bo‘lib, Markaziy Osiyoning bag‘rikeng islom modelini ilgari surish uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Nashrning qayd etishicha, markaz nafaqat madaniy, balki strategik vazifani ham bajaryapti. “Mamlakatning islom sivilizatsiyasi merosini targ‘ib qilish O‘zbekistonning Yevrosiyo markazini Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog‘laydigan madaniy va diplomatik ko‘prik sifatidagi rolini mustahkamlaydi, ko‘p

mintaqaviy aloqalarga hissa qo‘shadi”, deyilgan maqolada.

Markaz madaniy vazifadan tashqari radikalashuvga qarshi kurashish, inklyuziv islomni, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro tinchlik asosidagi me’yorlarni targ‘ib qilish uchun faol platformaga aylanadi. U tarixiy meros mamlakatning strategik ta’sirini kuchaytiruvchi vositaga aylanishi mumkinligini namoyish etmoqda.

Maqolada O‘zbekistonning xalqaro maydonda AQSH va Yevrosiyodagi boshqa mamlakatlarning ishonchli hamkori sifatidagi roli ortib borayotgani ta’kidlanadi. Mamlakat o‘zining geografik markazlashuvi, demografik salohiyati va ishlohtor kun tartibidan iqtisodiy ochiqlik, mintaqaviy xavfsizlik va madaniy yetakchilikni ilgari surish uchun foydalanmoqda.

“Forbes”da e’lon qilgan maqola yakunida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi orqali tarixiy meros zamonaviy ta’sirga aylanayotgani ta’kidlangan. Markaz strategik diplomatiya, xalqaro xavfsizlik va farovonlikni mustahkamlash, murakkab global davrda hamkorlikning yangi ufqlarini ochishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

# O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI — UCH MING YILLIK TARIX VA MADANIYATIMIZNING SO‘NMAS OVOZI

## Boshlanishi 1-betda

Quyida qavatda bolalar uchun maxsus platforma, restavratsiya hamda elektron nusxa olish laboratoriyasi, muzey eksponatlari va nodir qo‘lyozmalarni saqlash fondlari, zamonaviy kafeteriya va muzey vestibullyari joylashgan. Bular bolalarni tarix va ilmiy kashfiyotlarga qiziqitirishga xizmat qiladi.

Birinchi qavatdan qariyb 8350 kvadrat metrli ko‘rgazma zaliga ega muzey va 550 o‘rinli anjumanlar zali o‘rin olgan. Ikkinchi qavatda esa qo‘lyozma va toshbosma manbalar, bosma va elektron adabiyotlar fondiga ega kutubxona, o‘quv zallari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar uchun sharoit yaratilgan.

Prezidentimiz markaz ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi faoliyat uchun fundamental baza bo‘lishini alohida ta’kidladi. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari yuqori kurslarda shu yerda o‘qiydi. Professor-o‘qituvchilar esa bilimi va malakasini mazkur markazda oshiradi. Muhimi, markaz yoshlar orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug‘beklar, farg‘oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyalar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma’naviy maydon bo‘lishi kerakligi qayd etildi.

Albatta, buning uchun yetarli shart-sharoit bor. Xususan, tamal toshi qo‘yilganidan 2025-yilga qadar markaz fondidagi qadimiy manbalar soni 2000 dan oshgan. Qur‘oni karimning nodir qo‘lyozma nusxalari 60 tadan ziyod. Ularning barchasi xalqimizdan olingan va xalqaro auksionlar orqali xarid qilingan. Bu borada qilingan ishlar milliy va diniy merosimizni qayta tiklash, tarqoq holda saqlanayotgan bebaho manbalarni yurtimizga qaytarib, ilmiy muomalaga kiritish va kelajak avlod uchun asrab qolish yo‘lidagi teran yondashuvni yaqqol namoyon etmoqda.

Prezidentimizga ekspozitsiyadan o‘rin olgan alohida qimmatli qo‘lyozmalari haqida ham ma’lumot berildi. Jumladan, 1589-yilda xattot Sulon Muhammad sakkizburchak shaklida ko‘chirgan va tumor sifatida ham ishlatilgan “Bozband” Qur‘on qo‘lyozmasi, XVII asrga mansub, safaviylar davri xattotlik va kitob san’atining yetuk bosqichini aks ettiruvchi juda nafis bezakli nusxa, 1872-yili xattot Muhammad ibn Abdulhodi mag‘ribiy xat uslubida ko‘chirgan noyob qo‘lyozma, shuningdek, XII-XIII asrlarda saljuqiylar davrida xattot Muhammad Sodiq ibn Muhammad Shafiy tomonidan nasx xatida ko‘chirilib, satrlar orasiga forsiy tarjimasi



berilgan nodir nusxa shular jumlasidan. Ayrim qo‘lyozmalarda Samarqand, Hirot va Buxoro kitobat maktablarining an’anasi yaqqol namoyon bo‘lishi qayd etildi.

Shuningdek, Prezidentimizga muzey mehmonlariga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish ishlari taqdimot qilindi.

Markaz qisqa muddatda xalqaro nufuzli tashkilotlar va nashrlar tomonidan e’tirof etilayotgani ta’kidlandi. Xususan, markaz Fransiyaning Avitsenna mukofotiga sazovor bo‘lgan. AQSHdagi Smitson institutining “Smithsonian Magazine” nashri talqiniga ko‘ra, 2026-yilda dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilgan 10 ta muzeydan biri sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, “Condé Nast Traveler” nashri uni 2026-yil iyunda tashrif buyurish mumkin bo‘lgan muzeylar ro‘yxatiga kiritgan, BBC Travel esa dunyodagi eng ko‘p kutilgan muzeylar qatoriga qo‘shgan.

Taqdimotda “Har kim uchun ochiq muzey” konsepsiyasi asosida markazni ijtimoiy integratsiya maydoniga aylantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Buning uchun kelgusida barcha eksponatga maxsus elektron chip o‘rnatiladi. Ko‘zi ojizlar eksponatga yaqinlashganda audiogid orqali ma’lumotni avtomatik eshitish tizimi joriy etiladi. Bluetooth mayochalari yordamida binoda mustaqil harakatlanish imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari markaz binosining ikkinchi qavatida O‘zbekiston musulmonlari idorasi faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz markaz kutubxonasini ko‘zdan kechirdi.

Kutubxonada barcha zamonaviy imkoniyat mavjud. Umumiy maydoni 3105 kvadrat metrli qiroatxona fondida hozir 45 ming 150 dan ziyod adabiyot bor. Shundan 2609 tasi nodir nashrlardir. Bundan tashqari, kutubxonada 350 mingta elektron adabiyot mavjud. Unda bir vaqtning o‘zida 310 foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatish mumkin. Olimlar va professorlar uchun alohida xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratilgan.

Kutubxonada imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ham alohida sharoit yaratilgan. Shuningdek, kutubxonadagi “Sonic chair” audioresurslar uchun zamonaviy qurilmasi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyoda birinchi marta shu yerda joriy etilgan. Kutubxonada hududida kitobxonalar uchun yashil maydon, nusxa ko‘chirish xizmati, individual shug‘ullanish uchun maxsus xonalar va bolalar uchun alohida maydon ham tashkil etilgan.

Prezidentimiz markaz huzurida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-ma’rifiy platforma faoliyati bilan tanishdi.

Platforma doirasida qator nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. AYESKO, IRSIKA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiya’dagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ularning ofis xonalari tashkil etilgan. Bu mahalliy olimlar va xorijiy tashkilotlar vakillarining hamjihatlikda tadqiqot o‘tkazishi, qo‘shma loyihalar ishlab chiqishi va ma’rifiy tashabbuslarni amalga oshirishi uchun qulay muhitdir.

Tashrif davomida davlatimiz rahbari markazga hadya etilgan va xorijdan xarid qilingan qimmatbaho tarixiy artefaktlar ko‘rgazmasi bilan ham tanishdi.

Prezidentimiz topshirig‘iga binoan, xorijdagi madaniy boyliklarni O‘zbekistonga qaytarish ishlari izchil bajarilmoqda. O‘tgan yili Buyuk Britaniya’dagi “Sotheby’s” va “Christie’s” kabi auksion uylari, art-dilerlar va xususiy kolleksionerlardan 700 dan ortiq artefakt sotib olingan. Shuningdek, turli muassasalar, tashkilotlar va homiylar 1000 dan ortiq buyum hadya qilgan.

— Bugun o‘zligimizni anglash yo‘lida katta tantana bo‘ldi. Ming shukrki, to‘qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa, yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak.

Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur‘oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug‘ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo‘lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari Islom sivilizatsiyasi markazining Faxriy mehmonlar kitobiga dastxat qoldirdi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz iftorlik marosimida ishtirok etdi. Ushbu marosimda hududlardagi studiyalar orqali nuroniylar, olimu ulamolara, keng jamoatchilik vakillari ham qatnashdi. Shuningdek, turli millat va diniy konfessiyalar a‘zolari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida davlatimiz rahbari butun xalqimizni muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor chin qalbdan tabrikledi. Shu ulug‘ ayyom kunlariga barchamizni tinch-omon, sog‘-salomat yetkazgani uchun Alloh taolaga behad shukronalar aytildi.

Muborak Ramazon oyi xalqimiz uchun fayz-baraka olib keldi. Jamiyatimizda inson qadriini ulug‘lash, tinchlik va umummilliy birlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilayotgan amallarga boy bo‘ldi. Xususan, davlat va nodavlat tashkilotlar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mahallalar uyushmasi, Musulmonlar idorasining “Vaqq” xayriya jamoat fondi, hududlardagi “Inson”

ijtimoiy xizmatlar markazlari, shuningdek, saxovatli tadbirkorlar tomonidan keksa va nogironlar, kam ta’minlangan oilalar, ko‘makka muhtoj insonlarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatilmoqda. Tibbiyot bo‘linmalari olis va chekka hududlarga chiqib, ayollar, bolalar va nuroniylarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazmoqda, bemorlar yurtimizda yaratilgan zamonaviy tibbiyot imkoniyatlari ko‘magida davolanmoqda.

Hozirgi g‘oyat tahlikali zamonda tinchlik naqadar ulug‘ va bebaho ne‘mat ekanini chuqur anglashimiz zarur. Xalqimizning boy merosi, muqaddas dinimiz bizga mana shunday shukhul kunlarga shukrona aytish va uni asrab-avaylash uchun bag‘rikenglik ila ish tutishni ko‘rsatadi. Davrada O‘zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham qatnashayotgani muqaddas dinimizning insonparvarlik va bag‘rikenglik qadriyatlariga, mamlakatimizning ochiqlik siyosatiga hurmat ifodasi sifatida baholandi.

Bu kun xalqimiz uchun yana bir tarixiy voqea — O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimi o‘tkazilgan sana ekan alohida ta’kidlandi. Biz Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini barpo etishdek ulkan maqsadni ko‘zlaganmiz. “Eng avvalo, ilm va ta’lim” degan oliy maqsad hayotga joriy etilayotgani bejiz emas. Muqaddas islom dini ham insonni doimo ilm-ma’rifatga da’vat etadi. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug‘bek darvozasi peshtoqiga Qur‘oni karimning “Iqro!” — “O‘qi!” degan muborak oyati muhrilab qo‘yilgani teran ramziy ma’noga ega ekanini aytildi.

— Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko‘rsatuvlar uch ming yillik tarix va madaniyatning so‘nmas ovozi bo‘lib dunyoga taralsin! Yangi O‘zbekistonda tinchlik, ezgulik, bilim va ma’rifat diyorini sifatida olamga tarannum etsin! Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g‘urur maktabiga aylansin! — dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimiz va jahon ahliga tinchlik, ezgulik, bilim va ma’rifat maydoni bo‘lib hamisha beminnat xizmat qiladi.

Iftorlik marosimida Qur‘oni karimdan tilovat qilinib, xalqimiz tinchligi, Vatanimiz obodligi uchun qo‘llar duoga ochildi.

**Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



# AHOLI DAROMADI 10 FOIZ OSHSA, ISTE'MOL 8 FOIZ KO'PAYADI

## Boshlanishi 1-betda

Ichki bozor faqat mahsulot va xizmatlar yig'indisi emas, balki jamiyatning iqtisodiy refleksi, ya'ni muammolarga ichkaridan javob berish qobiliyati. U qanchalik faol bo'lsa, iqtisodiyot shunchalik moslashuvchan bo'ladi.

Bugungi murakkab global vaziyatda ichki bozorda talabni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning alohida yo'nalishi emas, balki barqaror taraqqiyotning markaziy tayanchiga aylangan.

Ana shunday murakkab va tez o'zgaruvchan global iqtisodiy muhitda davlat siyosati tasodifiy qarorlarga emas, aniq ustuvorliklarga tayanishni talab etadi. Shu nuqtayi nazaridan, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi bugungi voqeikka berilgan baho va ertangi kunga qaratilgan aniq "yo'l xaritasi" sifatida namoyon bo'ldi.

Ichki bozorning mohiyati iqtisodiyotning turli qatlamlarini uyg'unlashtirib, uzluksiz harakatni ta'minlaydi. Aholi ehtiyojidan kelib chiqib iqtisodiyotdagi eng katta talab uy-joy sohasiga to'g'ri keladi. Bugun mamlakatimizda qad ko'tarayotgan ko'p qavatli uylar, yangi xizmat obyektlari va ipoteka dasturlari aholining turmush sharoiti yaxshilanishi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikning aniq ko'rsatkichidir.

Uy-joy sohasiga qaratilgan bu investitsiya nafaqat aholining asosiy ehtiyojini qondirish, balki ichki bozorda talabni rag'batlantirish, iqtisodiyotni uzluksiz harakatda ushlab turish va yangi ish o'rinlari ochildishda hal qiluvchi qudratli mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Uy-joy xarid qilishda boshlang'ich to'lov va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun 2 trilyon 700 milliard so'mlik subsidiya ajratilishi ham aholining xarid qobiliyatini mustahkamlaydi. Shuningdek, bitta kvartira uchun imtiyozli ipoteka krediti miqdori 15 foiz oshirilishi talabni barqaror va uzluksiz rag'batlantirishning yana bir muhim omilidir.

Kelgusi yilda 140 mingta ko'p qavatli kvartira qurilishi rejalashtirilgan shunga yaqqol misol: bu aholining uy-joyga ehtiyojini ta'minlash barobarida to'z'og'or uchun zarur iste'mol tovarlariga talabni ham oshiradi. Mazkur talabni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026-yilda joriy yilgi 104 trilyon so'm o'rni 125 trilyon so'mlik iste'mol krediti ajratish ko'zda tutilmoqda.

kredit ajratilayotgani ham talabni sun'iy emas, tabiiy rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada aholining xarid qobiliyati ikki baravar o'sdi.

O'tkazilgan so'rovlar va xalqaro ekspertlar tahlillariga ko'ra, aholining 75 foizi o'z moliyaviy holati sezilarli darajada yaxshilanganini tan olmoqda. Raqamlar ortida bir haqiqat yotibdi: ichki talab bugun iqtisodiyotni olg'a yetaklayotgan asosiy kuchga aylangan.

Tahlillar aholi daromadi 10 foiz oshsa, iste'mol o'rtacha 8 foiz ko'payishini ko'rsatadi. Bu esa faqat iste'mol emas, balki yangi mahsulotlar, yangi xizmatlar, qo'shimcha ish o'rinlari va iqtisodiyotda yangi quvvatlar degani. Shu ma'noda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish joriy yil uchun belgilangan ustuvor yo'nalish emas, balki iqtisodiy o'sishning tabiiy lokomotivi sifatida namoyon bo'lmoqda.

## Bunyodkorlikdan bozorgacha yo'l

Ichki bozorning mohiyati iqtisodiyotning turli qatlamlarini uyg'unlashtirib, uzluksiz harakatni ta'minlaydi. Aholi ehtiyojidan kelib chiqib iqtisodiyotdagi eng katta talab uy-joy sohasiga to'g'ri keladi. Bugun mamlakatimizda qad ko'tarayotgan ko'p qavatli uylar, yangi xizmat obyektlari va ipoteka dasturlari aholining turmush sharoiti yaxshilanishi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikning aniq ko'rsatkichidir.

Uy-joy xarid qilishda boshlang'ich to'lov va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun 2 trilyon 700 milliard so'mlik subsidiya ajratilishi ham aholining xarid qobiliyatini mustahkamlaydi. Shuningdek, bitta kvartira uchun imtiyozli ipoteka krediti miqdori 15 foiz oshirilishi talabni barqaror va uzluksiz rag'batlantirishning yana bir muhim omilidir.

Kelgusi yilda 140 mingta ko'p qavatli kvartira qurilishi rejalashtirilgan shunga yaqqol misol: bu aholining uy-joyga ehtiyojini ta'minlash barobarida to'z'og'or uchun zarur iste'mol tovarlariga talabni ham oshiradi. Mazkur talabni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026-yilda joriy yilgi 104 trilyon so'm o'rni 125 trilyon so'mlik iste'mol krediti ajratish ko'zda tutilmoqda.



Qurilish ishlari hajmini 11 foiz ko'paytirib, 30 milliard dollarga yetkazish rejasini iqtisodiyotda quvvatni sezilarli darajada oshirilishi qurilish materiallari, uy-ro'zg'or uchun to'qimachilik mahsulotlari, elektr texnikasi, mebelsozlik kabi tarmoqlarga qo'shimcha bozor yaratish bilan birga ushbu obyektlarga xizmat ko'rsatuvchi sohalar uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar ochildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bu 5 milliard dollarlik qo'shimcha bozor va 300 mingta yangi ish o'rni demakdir. Uy-joy sohasiga qaratilgan bu investitsiya nafaqat aholining asosiy ehtiyojini qondirish, balki ichki bozorda talabni rag'batlantirish, iqtisodiyotni uzluksiz harakatda ushlab turish va yangi ish o'rinlari ochildishda hal qiluvchi qudratli mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

## Yangi imkoniyatlar oqimi

Aholi daromadi oshishi iste'molni va xizmatlarga talabni ham sezilarli darajada rag'batlantirmoqda. Shu bois, servis sohasi iqtisodiyotning yangi drayveriga aylangan. Faqat o'tgan yilning o'zida xizmatlar hajmi qariyb 15 foiz o'sib, 82 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich aholining sarflash qobiliyati va xizmatlarga ishonchi oshganini dalolat beradi.

Xizmatlarga talabni rag'batlantirish va bozorni kengaytirish maqsadida joriy yilda sohaga 85 trilyon so'mlik kredit va 9 trilyon so'mlik

subsiyada ajratish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, aholi hayotining asosiy sohalaridan biri — ta'lim xizmatlari uchun byudjetdan 7 trilyon so'm ajratiladi. Bu esa xizmat sifati va imkoniyatlarini kengaytirish barobarida aholining iste'mol imkoniyatini mustahkamlaydi.

Turizm sohasi ham ichki talab va xizmatlar bozorini rivojlantirishda muhim drayverga aylangan. Keyingi besh yilda xorijlik sayyohlar sonini ikki baravar — 11 milliarddan 20 millonga ko'paytirish, shu bilan birga, turizm xizmatlari qiymatini 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olinmoqda.

Bu valyutani jalb qilish, ichki servis va infratuzilmani rivojlantirish uchun ham yangi quvvatlar yaratadi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotni barqaror qo'llab-quvvatlovchi kuchga aylanib, ichki talabni rag'batlantirishda, aholi daromadida va sarflash qobiliyatini iqtisodiy harakatga keltirishda hal qiluvchi elementga aylangan.

Joriy yilda tadbirkorlarning 4 milliard dollarlik 3500 dan ziyod yangi servis obyektini ishga tushirish mo'ljallanmoqda. Bu aholiga xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, ichki talabni kuchaytirish va iqtisodiyotda yangi quvvatlar yaratish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, turizm maskanlarini tashkil qilish maqsadida kelgusi uch yilda 5000 gektar yer auktsionga chiqarilishi ham rejalashtirilishi sayyohlik infratuzilmani kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun strategik qadamdir.

Joriy yildan "O'zbekiston merosi mehmonxonalarini" dasturi yo'lga qo'yiladi.

Madaniy meros obyektlarida xususiy sheriklik asosida "butik mehmonxona" tashkil qilish uchun nufuzli mehmonxona tarmoqlari jalb qilinadi. Dastur ishroqchilarga yer, mulk, foyda solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilishi investitsiyalarni rag'batlantirish, turizm sifati va raqobatni oshirish uchun katta rag'batdir. Bu tashabbuslar hisobiga joriy yilda xizmatlar bozori hajmini 100 milliard dollardan oshirish rejalashtirilmoqda.

Turistlar oqimi tobora oshib borayotgani aviatsiya va temir yo'ldagi yo'lovchi tashish quvvatini ikki baravar ko'paytirishni talab qilmoqda. Shu bois, bu yil aviaparkdagi havo kemalari sonini 105 tadan 120 taga yetkazish va mahalliy aviaparkdagi ko'paytirish uchun subsidiyalarning yangi tizimi joriy etiladi. Narxidan qat'i nazar, sotilgan har bir chipta uchun aniq miqdorda subsidiya ajratilishi — chipta narxini pasaytirish va talabni barqaror rag'batlantirish uchun samarali mexanizm.

Yangi samolyotlar uchun uchuvchilar, texnik xizmat ko'rsatuvchilar va aeroportlardagi boshqaruv mutaxassislarini tayyorlash maqsadida Fuqaro aviatsiya universiteti ochildi. Bu nafaqat aviatsiya sohasida kadrlar zaxirasini mustahkamlaydi, balki ichki talab va turistik sektorni qo'llab-quvvatlovchi yuqori malakali kadrlar bazasini yaratadi.

Yangi xizmat va turizm infratuzilmasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar nafaqat bozorni kengaytirish, balki ichki talabni barqaror rag'batlantirish, turizmni rivojlantirish va iqtisodiyotni yangi drayverlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki bozorni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni barqaror qo'llab-quvvatlashda transport infratuzilmasi muhim drayver. Shu bois, navbatdagi besh yillikda ishlab chiqilgan ichki temir yo'llar dasturi mamlakat iqtisodiyotiga yangi sur'at baxsh etadi. Shaharlarni tezayur poyezdlar qatnovi bilan bog'lash maqsadida bu yildan yana 500 kilometr temir yo'li qurish ishlariga kirishiladi. Shuningdek, kelgusi yilda 110 kilometr temir yo'li tarmog'i barpo etiladi hamda Bo'ka, Piskent, Bekobod, Boyovut tumanlari va Nurafshon shahri poytaxti bilan bog'lanadi.

Toshkent — Samarqand yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlari uchun yangi temir yo'li liniyasini qurish ham boshlanadi. Shu bilan birga, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Navoiyda yuqorilari xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilinishi rejalashtirilmoqda. BMT tahliliga ko'ra, sifati yuqori yo'llar iqtisodiyotimiz o'sishiga kamida 2 foizlik to'siqsiz turki beradi.

Avtomobil yo'llarini rivojlantirish va tranzit salohiyatini oshirish maqsadida ham besh yillik dastur ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Andijon — Qo'ng'iro't, Toshkent — Termiz, Samarqand — Shahrisabz va Olot — Sariyoshi yo'nalishi bo'yicha 4000 kilometrligi magistral yo'l xalqaro standartlarga mos avtobanlarga aylantiriladi. 2026-yilning o'zida Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo o'tgan umumiy foydalanishdagi 300 kilometrligi yo'l rekonstruksiya qilinishi kutilmoqda.

Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent — Bo'stonliq, Pung'on — Namangan va Qarshi — Shahrisabz yo'nalishlarida yuqori tezlikda harakatlanish uchun 800 kilometrligi yo'l qurilishi tayyorgarlik ko'rildi. Qolgan 1200 kilometr yo'l 2030-yilga qadar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qayta yotqiziladi.

Yo'l qurilishida aholining fikri, transport qatnovining atrof-muhitga ta'siri hamda piyodalar uchun to'siqsiz muhit yaratish kabi talablar qonun darajasida mustahkamlanadi. Shuningdek, yo'l qurilishida ilg'or texnologiya va standartlarni joriy qilish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Temir yo'l va avtomobil infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat logistika va transport salohiyatini kuchaytirib, ichki bozorni har qadamda qo'llab-quvvatlash, balki iqtisodiyotda yangi drayverlar — qurilish, xizmat, turizm va ishlab chiqarish sohalarini uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Aholining daromadi ko'payib, xorijlik turistlar oqimi tobora ortib borayotgani kelgusi besh yilda oziq-ovqat mahsulotlariga talabni 1,5 baravar oshirishni taqozo qilmoqda. Shu bois, qishloq xo'jaligi sohasida hajmi hozirgi 40 milliard dollardan 60 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olinadi.

Yangi yilda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga 52 trilyon so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Shu mablag' hisobiga bozorni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil o'ntinchi yo'q bo'lgan narxlarda ta'minlaydigan yangi mexanizm — doimiy intervensiya tizimi yo'lga qo'yiladi.

Hududlardagi "Oziq-ovqat jamg'armalari" ga ajratilgan resursni 2,5 baravar ko'paytirib, 500 milliard so'mga yetkazish ham mo'ljallanmoqda. Shuningdek, meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilgan mingta mahallada sig'imi 100 tonnacha bo'lgan kichik sovitchilki omborlar barpo etiladi. Bu qadamlar mahsulotlarning barqarorligini ta'minlash bilan birga ularning sifati va yangi texnologiyalar asosida zaxiralashtirish ham kafolatlaydi.

Bulaming barchasi kelgusi yili inflyatsiya darajasi 6-6,5 foiz tushirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholi daromadi va iste'mol qobiliyati o'sishi, ichki bozordagi barqarorlik va ishonch hamda iqtisodiyotni yangi drayverlar bilan ta'minlash birligida amalga oshiriladi.

Ichki bozorni rag'batlantirish va aholi turmushi sifatiga xizmat qiluvchi barcha chora-tadbirlar o'zaro uzviy bog'liq. Daromadning o'sishi, uy-joy va ipoteka sohasidagi investitsiyalar, xizmatlar va turizm infratuzilmasi, transport va logistika yo'llari hamda qishloq xo'jaligidagi samaradorlikni oshirish choralari birgalikda iqtisodiyotning yangi drayverlarini yaratadi.

Joriy yildan boshlab joriy etilayotgan barqaror intervensiya tizimi, imtiyozli ipoteka, xizmat va turizm subsidiyalari, transport infratuzilmasi hamda qishloq xo'jaligi mablag'lari aholiga ishonch va sarflash qobiliyatini oshirish, ichki talabni barqaror rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari va qo'shimcha iqtisodiy quvvatlar ochildishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, ichki bozorni rivojlantirish iqtisodiyotni uzluksiz harakatda ushlab turish bilan birga mamlakatning geosiyosiy va iqtisodiy tez o'zgaruvchan vaziyatda ham barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omilga aylangan. Bu esa odamlar turmush darajasini yanada yuksaltirish, iqtisodiyotda yangi quvvatlar yaratish va O'zbekistonni global bozorda raqobatbardosh davlatga aylantirish yo'lida muhim qadamdir.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Gulnora MA'RUFOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi

## Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, xalq deputatlari mahalliy kengashlarining budget jarayonidagi ishtiroki va nazorat funksiyalarini kuchaytirish orqali mahalliy budget mablag'larining maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Natijada mahalliy budgetni boshqarishda hududiy manfaatlar va aholining real ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyati kengaymoqda.

Mazkur tendensiya davlat budgeti ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topyapti. Xususan, 2025-yil davlat budgeti parametrlari mamlakat moliyati tizimida ijobiy dinamika saqlanib qolganini ko'rsatadi. Mazkur yilda O'zbekistonning konsolidatsiyalangan budgeti daromadi taxminan 431 trilyon so'm atrofida shakllantirildi. Shundan davlat budgeti daromadi 308,5 trilyon so'mni tashkil etgan bo'lsa, mahalliy budgetlar daromadi taxminan 65-70 trilyon so'm atrofida bo'ladi. Bu esa hududiy budgetlar ulushi yildan yilga ortib borayotgani



## Kuchli parlament – demokratik jamiyat asosi

# MAHALLIY BUDJET MABLAG'I MAQSADLI SARFLANYAPTIMI?

va mahalliy moliyaviy mustaqillik bosqichmas-bosqich mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Daromadlar o'sishida qo'shilgan qiymat, foyda hamda jismoniy shaxslar daromad soliqlari asosiy manbalari sifatida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu soliq tushumlarining ortib borishi iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish hajmi va tadbirkorlik faolligining izchil o'sib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji yangi ish o'rinlari ochilishi, iqtisodiy faollik kengayishi hamda mahalliy budgetlar daromad bazasining mustahkamlanishiga hissa qo'shmoqda. Bu esa mahalliy budgetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilaypti.

So'nggi yillarda davlat budgetining salmoqli qismi ijtimoiy sohalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilaypti. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya hamda kommunal infratuzilmani rivojlantirish kabi yo'nalishlarga mahalliy budget mablag'ining asosiy qismi sarflanaypti.

Mahalliy budget mablag'larining qanday taqsimlanishi va qaysi loyihalarga yo'naltirilishida xalq deputatlari mahalliy kengashlari muhim o'rin tutadi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, budget loyihasini hokimliklar ishlab chiqadi, biroq uni ko'rib chiqish, tasdiqlash hamda ijrosini nazorat qilish mahalliy kengashlar vakolatiga kiradi. Bu esa

budgetga doir qarorlarni qabul qilish jarayonida hudud aholisining manfaatini, ijtimoiy ehtiyojlari va mahalliy rivojlanish ustuvorliklarini inobatga olish imkoniyatini kengaytiradi.

Deputatlar o'z saylov okrugining aholi bilan doimiy muluqda bo'lgani bois, hududlardagi dolzarb muammolarni yaxshi biladi. Shu jihatdan budget mablag'larini taqsimlashda aynan aholi ehtiyojlari ustuvor o'rinda tutadi. Masalan, ayrim hududlarda ichimlik suv tarmog'ini yangilash birinchi darajali vazifa bo'lsa, boshqa hududlarda maktab yoki tibbiyot muassasalarini ta'mirlash muhim.

Keyingi yillarda mahalliy budget mablag'ini taqsimlashda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan "Tashabbusli budget" tizimi joriy etildi. Bu mexanizm fuqarolarga o'z hududida amalga oshirilishi zarur bo'lgan loyihalarni taklif qilish va ularni ovoz berish orqali tanlash imkonini bermoqda. Natijada budget mablag'ining bir qismi bevosita aholi tashabbuslari asosida sarflanmoqda.

Tahlillar aholi ilgari surayotgan loyihalarning katta qismi infratuzilmani yaxshilashga qaratilganini ko'rsatadi. Xususan, mahalla ichki yo'llarini ta'mirlash, maktab va bog'chalarni rekonstruksiya qilish, tibbiyot muassasalarini jihozlash hamda ichimlik suv tarmoqlarini yangilash kabi tashabbuslar eng ko'p qo'llab-quvvatlanayotgan yo'nalishlardir.

E'tiborli jihati, budget mablag'idan samarali



foydalanishda nazorat mexanizmi muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda xalq deputatlari mahalliy kengashlari faqat hisobot eshitish bilan cheklanib qolmay, budget ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshiradi. Xususan, mutasaddi tashkilotlar rahbarlarining hisoboti tinglanib, amalga oshirilayotgan loyihalar joylarda o'rganiladi, ajratilgan mablag'ning maqsadli va samarali sarflanishi tahlil qilinadi. Bunday yondashuv budget mablag'larining shaffofligi va



aholi manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimining joriy etilishi ham budget jarayonida ochiqlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Budget ma'lumotlarining ochiq platformalarda e'lon qilinishi jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, mablag'lar harakatini shaffof kuzatish imkonini bermoqda. Davlat siyosatining mazkur yo'nalishi

konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat budgeti shakllantirilishi hamda ijrosi ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, shuningdek, fuqarolar va fuqarolik jamiyat institutlari budget jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi belgilab qo'yilgan.

Bu nimasi bilan muhim? Ko'pchilikda davlat budgeti yoki mahalliy budgetlar qanday shakllanishi haqida umumiy tasavvur yetarli emas. Xalqona qilib "davlatning puli" deb ataladigan ushbu mablag' aslida xalq to'lagan soliqlar evaziga yig'ilgan pullardir. Tabiiyki, odamlar o'z puli qanday va qayerga sarflanayotganini nazorat qilishga haqli. Shu ma'noda, Bosh qonunimizdagi ushbu norma aynan mana shu huquqni kafolatlaydi.

Ya'qinda "Ochiq budget" portali yangi interaktiv xizmat — sun'iy intellekt asosida ishlaydigan "AI yordamchi" chat boti joriy qilindi. Ushbu platforma fuqarolarga portaldagi imkoniyatlardan samarali foydalanish va zarur ma'lumotlarni tezkor olish imkonini beradi.

Yangi chat bot orqali aholi "Tashabbusli budget", "Mening maktabim" va "Mening bog'im" loyihalari hamda "Mahalla budgeti" yo'nalishlariga doir savollarga real vaqtda javob olishi mumkin. Tizim foydalanuvchilar murojaatini avtomatik tahlil qilib, tegishli ma'lumotni ularga qisqa muddatda taqdim etadi.

Bu yangilik bizga nima beradi? Avvalo, ushbu raqamli yechim mahalliy kengashlarning nazorat va tahlil imkoniyatini kengaytiradi. Ular loyihalarning moliyaviy samaradorligi va aholi ehtiyojlariga mosligini baholashda faol ishtirok etib oladi. Shu bilan birga, chat bot orqali aholining axborotdan xabarдорlik darajasi va jamoatchilik nazorati samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Qolaversa, ushbu interaktiv xizmatning joriy etilishi davlat budgeti va mahalliy tashabbusli budget jarayonlari ustidan shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashda muhim qadamdir. Bu aholining budget qarorlarida faol ishtirok etishini rag'batlantirish va kengashlar nazorat funksiyalarini takomillashtirish imkonini yuzaga keltiradi.

# KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK

## Barchasi qiziqishdan boshlangandi

Har bir raqam ortida inson taqdiri, har bir hisobot asosida esa hududiy rivojlanishning real manzarasi bor. Bugun viloyat iqtisodiyotining qon tomiri hisoblangan kichik-biznes subyektlari aholi ehtiyoji uchun talabgir mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga ko'plab oilalarning daromad topishiga keng imkoniyat yaratyapti.

# Hududlar hayoti



Namangan viloyatida so'nggi yillardagi keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari nafaqat hudud qiyofasini, balki uning iqtisodiy va investitsiyaviy jozibadorligini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayonning eng yorqin timsollaridan biri Namangan xalqaro aeroportidir. Bugun u shunchaki transport infratuzilmasi obyektiga emas, balki viloyatning xalqaro maydonga chiqishidagi strategik nuqta, turizm va eksport salohiyatini belgilab beruvchi muhim logistik markazga aylanmoqda. Chunki aynan shu maskan orqali Namanganga keluvchi xorijlik mehmonlar, investorlar va sayyohlarda dastlabki taassurot shakllanadi.

## IMKONIYAT VA ISTIQBOL SARI YO'L

Hozir 140 million dollarlik investitsiya hisobiga zamonaviy, uch qavatli yangi terminal barpo etilmoqda. Loyiha amalga oshgach, aeroportning yo'lovchi qabul qilish quvvati 2,5 barobar oshishi kutilyapti. Bu esa parovozlar soni ko'payishi bilan birga xalqaro yo'nalishlar geografiasining kengayishiga ham xizmat qiladi.

Yangi terminalda chegara va bojxona nazorati, viza bo'limlari, biznes zal, savdo va ovqatlanish shoxobchalari, tibbiyot xonasi, zamonaviy "Duty free" do'konlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Infratuzilmaning bunday kompleks rivojlanishi aeroportni xalqaro standartlarga mos yirik aviatsiya xabiga aylantirish imkonini beradi.

Bu o'zgarishlar bejiz emas. Chunki Namanganda 65-xalqaro gullar festivalini yangicha formata, betakror va ko'tarikli ruhda o'tkazish rejalashtirilgan. Ushbu sa'y-harakatlar viloyatning global madaniy va turistik maydonidagi o'rni yanada mustahkamlashga qaratilgan, uzoqni ko'zlagan strategiyani bir qisimdir. Ayniqsa, mazkur xalqaro festival dastlab mahallalardan boshlanishi uchun ishlar boshlab yuborilgani fikrimiz tasdiq idir.

Mahalliy bozorda, balki xorijda ham tanilish bormoqda. Baliqchilik, qulupnaychilik, hunarmandchilik kabi sohalar esa turizm va iqtisodiyotning o'ziga xos drayverlariga aylanmoqda.

Milliy ruh va zamonaviy yondashuv uyg'unligi tadbirkorlarning turizm salohiyatini oshirish yo'lidagi asosiy maqsadiga aylangan. Yangi Namangan tumanida faoliyat yuritayotgan "Kamolxon ota" milliy oshxonasi ana shunday tashabbuslarning yorqin namunasi. Majmua milliy uslubda barpo etilgan bo'lib, XVI-XIX asrlarga oid nodir ashyolar bilan bezatilgan. Bu yerda tarixiy muhit va zamonaviy servis uyg'unlashgan.

Loyiha tashabbuskori, tadbirkor Muhammad Kazakovning ta'kidlashicha, shu paytga qadar 11 milliard so'mlik ishlar bajarilgan. Majmua bir vaqtning o'zida 1000 kishiga xizmat ko'rsatish imkoniga ega. Arthaus va hunarmandlar markazi tashkil etish ishlari davom etmoqda. Bu kabi obyektlarda nafaqat ovqatlanish xizmati ko'rsatiladi, balki madaniy-turistik markaz vazifasini ham bajaradi. Mehmon bu yerda milliy taomlardan bahramand bo'lish bilan birga

Kaltatoy qishlog'i Qamashining eng so'lim hududlaridan biri. Tog' etagida joylashgani bois, havosi toza, tabiati go'zal. Iskandar aka shu qishloqda tug'ilib, voyaga yetgan. Har bir so'qmoq yod bo'lib ketgan. Qaysi qoya etagida qanday o'simlik o'sishini yaxshi biladi. Chunki bolaligida dadasiga ergashib, tog'dan dorivor giyohlar terib qaytishardi. Tabiblar sulolasi bo'lgani sabab shifo ilinjida bu xonadonni yo'qlab keluvchilar ko'p edi.



Yosh Iskandar ham shu jarayonda qatnashib, giyoh bilan davolashga qiziqib qoldi. Hatto tabiat qo'ynidagi dorivor o'simliklarning qanday o'sishini, qachon yetilishini kuzatib, alohida daftarga yozib borgan.

Maktabni tugatgach, universitetning biologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Bu ham o'simliklar dunyosini ilmiy jihatdan yaxshiroq o'rganishga o'ziga xos sharoit bo'ldi. Shundan foydalanib holda dorivor giyohlarni ko'proq o'rgandi, ulardan foydalanish borasida tajriba o'rtirdi.

Keyinchalik o'zi mustaqil ravishda shifobaxsh o'simliklar bilan davolashni boshlashga chog'langanda dastlab tajribali ustozlar maslahatini oldi, ish uslublarini o'rgandi. Bu yo'nalishda qat'iy ishonch hosil qilgach, tegishli tashkilotlarning rasmiy ro'yxatidan o'tib ish boshladi.

Har qanday ishning avvalida katta-kichik muammolar, savollar paydo bo'lishi tabiiy. Jumladan, dorivor giyohlarni qanday miqdordagi tayyorlash, maxsus qadoqlarga joylab bemorga tavsiya qilish oson emasdi. Ayniqsa, dorivor

giyohlarni goh qog'oz, goh yelim xaltalarga solib berish qandaydir xijolati edi. Kimlardir bunga e'tiroz bildirgan, iloji boricha talabga mos qutilarga joylashni taklif etgan damlar ham bo'ldi va ular haq edi, albatta. Yosh tadbirkor zarur shart-sharoit, imkoniyat izlab Qarshi shahrida ish boshladi.

Zamon talabiga mos ishlash vaqti kelgani bois, yangi loyihalar qildik, — deydi "Jabbor Norqulovich" xususiy korxonasi rahbari Iskandar Saidov. — Xorijdan tegishli uskuna xarid qildik. Mahsulotimizni giyigiyena talablariga javob beradigan maxsus qutilarga joylaydigan bo'ldik. Bu qutilarda joylangan shifobaxsh mahsulot tarkibi, qachon va qanday foydalanish kabi ma'lumotlarni ko'rsatdik. Bu loyihamiz amalga oshganiga ko'p bo'lmasa-da, natijasi yomon emas. Shu bois, tayyor mahsulotlarni yanada ko'paytirish uchun harakat boshlaganimiz. O'rmon xo'jaliklari va shifobaxsh o'simliklar yetishtiruvchilar bilan shartnoma tuzdik. Endi yer olib, o'zimizda ham ularni ko'paytirishni yo'lga qo'ymoqchimiz.

Har bir raqam ortida inson taqdiri, har bir hisobot asosida esa hududiy rivojlanishning real manzarasi bor. Bugun viloyat iqtisodiyotining qon tomiri hisoblangan kichik biznes subyektlari aholi ehtiyoji uchun talabgir mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga ko'plab oilalarning daromad topishiga keng imkoniyat yaratyapti.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti bugun ishlab chiqarishdagina emas, sifat jihatidan ham yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Hududda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining umumiy soni 2026-yilning 1-yanvar holatida 25 ming 38 tani tashkil etdi. Bu o'tgan yilning mos davridagidan 11,5 foiz ko'pdir. Muhimi, faoliyatini kengaytirish orqali ish o'rnlari ko'paymoqda, bozorlarimiz to'kisligi yangi va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlanmoqda.

Hozir viloyatda kichik biznes subyektlari soni bo'yicha 5166 ta korxonalar Namangan Qarshi shahri yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Qarshi tumanida 1952 ta, Kitob tumanida 1758 ta, Kosonda 1691 ta, Yakkabog'da 1686 ta,

Qamashida 1544 ta, Shahrisabz shahrida 1479 ta korxonalar faoliyat yuritayotir.

Bugungi kichik biznes subyektlari faqat savdo bilan cheklanib qolmay, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sohalariga dadil kirib boryapti. Hisobotlar tahliliga ko'ra, jami korxonalarining eng katta ulushi, aniqrog'i 9559 tasi savdo sohasiga to'g'ri keladi. Turli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha 6104 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4487 ta, sanoatda 2876 ta, qurilishda 2012 ta tashkilot va korxonalar faoliyat yuritib kelayotir.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotlarda kichik tadbirkorlik subyektlari ulushi 69,2 foizni tashkil qildi. Faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulush xizmat ko'rsatishda — 43,1 foiz, sanoatda — 17,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida — 31,5 foiz va qurilishda — 7,7 foiz.

Kichik biznes subyektlarining viloyat iqtisodiyotidagi o'rni ularning sonidan tashqari bajarayotgan ish hajmi bilan ham o'lchanadi. Xususan, sanoat mahsulotlari bo'yicha ularning ulushi o'tgan yili 19 ming 668,5 milliard so'mni, qurilish ishlarida 12 ming 464,2 milliard so'mni, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha 15 ming 744 milliard so'mni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 47 ming 491,1 milliard so'mni, chakana savdo aylanmasida 29 ming 327,3 milliard so'mni va xizmat ko'rsatish sohasida 40 ming 582,1 milliard so'mni tashkil etdi. Bu raqamlar viloyat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kichik biznes subyektlari hisssasi salmoqli ekani ko'rsatadi.

Muhimi, tadbirkorlikka qaratilayotgan katta e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda. Shunday jadalik bardoavom bo'lsa, yaqin yillarda bu raqamlar yanada o'rta shubhasiz.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## PAXTADAN – TAYYOR MAHSULOTGA BU JAHON BOZORIDA O'ZBEKISTON NOMINI TANITMOQDA

Uzoq yillar xalqaro maydonda O'zbekistonga asosan xomashyo, xususan, paxta yetkazib beradigan mamlakat sifatida qaralgan. Biroq bu "oq oltin" ortida og'ir taqdir, inson qadri poymol etilgani, bolalar mehnati va majburiy mehnat bilan bog'liq achchiq haqiqatlar turgani ham sir emas. Ushbu holat o'z o'rnida jahon bozorida o'zbek paxtasiga cheklovlar o'rnatilishiga sabab bo'lgan.



Yangi O'zbekistondagi yangilanishlar barcha soha qatori, qishloq xo'jaligi va yengil sanoatda ham tub burilish yasadi. Yillar davomida to'planib qolgan masalalar birma-bir yechimini topa boshladi. Mamlakatimiz yetakchisining siyosiy irodasi bilan majburiy mehnatga chek qo'yildi. Ochiqlik, shaffoflik va inson qadri ulug'lash davlat siyosatining ustuvor tamoyiliga aylandi. Natijada o'zbek paxtasiga qo'yilgan boykot bekor qilindi.

Bunday tarixiy o'zgarishlar ijtimoiy adolati tiklash bilan birga mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, yengil sanoatda mutlaqo yangi yo'nalish shakllandi. O'zbekiston endi paxtani faqat xomashyo sifatida sotadigan emas, balki uni chuqur qayta ishlab, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaradigan davlatga aylandi. Toladan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish zanjiri bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi.

Bu jarayon yengil sanoatning jadal rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Yangi to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini barpo etildi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilindi. Mahalliy mahsulotlar "Made in Uzbekistan" brendi ostida xalqaro ko'rgazmalar va nufuzli bozorlarda o'z o'rini topa boshladi.

Muhimi, ishlohtlar iqtisodiy samara bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minladi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun minglab doimiy ish o'rnlari ochildi, hududlar salohiyati oshdi, aholi daromadi o'sdi. Bu o'zgarishlar ishlohtlarning inson manfaatiga qaratilgan, davlat siyosati markazida inson qadri turganining yaqqol tasdiqi bo'ldi.

So'nggi yillarda Jizzax viloyatida to'qimachilik hamda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil ko'payib, mazkur tarmoq hudud iqtisodiyotining tayanch sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Hozir hududda faoliyat yuritayotgan yuzdan ziyod to'qimachilik va

tikuv-trikotaj korxonalarida 5000 dan ortiq yurtdoshimiz ishlayapti.

2025-yil yakunlariga ko'ra, viloyatda tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 250 million tona yetdi. Shu bilan birga, eksport ulushini oshirish maqsadida joriy yil uchun 75 million dollarlik marra belgilangan. Bu ko'rsatkichlar Jizzax viloyatida ishlab chiqarish quvvati ko'lamini kengayayotgani, mahsulot turari va sifatini xalqaro bozor talablariga moslashtirib borayotganidan dalolat beradi.

Sohadagi tub o'zgarishlarni o'tgan o'n yillik bilan solishtirganda ishlohtlar miqyosi yanada oydinlashadi. Xususan, 2017-yilda paxtani chuqur qayta ishlab, ya'ni uni kalava ip holigacha qayta ishlab darajasi atigi 20-25 foizni tashkil etardi. Hozir yirik investitsiya loyihalari va klaster tizimi joriy etilishi natijasida toladan tayyor mahsulotgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirining to'liq sikli yo'lga qo'yilaypti.

"Mirzachul Agroklastar Group" MCHJ 2023-yili Mirzacho'l tumanida tashkil etilgan. Ushbu korxonaga ham ishlohtlarning yaqqol namunasi. Klaster faoliyatining ilk kunlaridanoq qishloq xo'jaligini izchil rivojlantirish, hududda yetishtirilayotgan xomashyoni qayta ishlab, eksport salohiyatini yuksaltirishni ustuvor vazifa qilgan. Muhimi, bu kabi loyihalar orqali tuman aholisi bandlegini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili "Mirzachul Agroklastar Group" MCHJ 508 ta fermer xo'jaligi bilan tuzilgan shartnomalar asosida 55 ming tonnadan ortiq — umumiy qiymati 305 milliard so'mdan ziyod paxta xomashyosi zakirasi shakllantirishga erishdi. Xorijdan keltirilgan paxta navi to'g'ri tanlangani tufayli hosildorlik sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, 2025-yilga mo'ljallangan 26 million dollarlik investitsiya hisobiga paxtani qayta ishlab tarmog'i to'liq yo'lga qo'yildi. Natijada "paxta — kalava ip — mato — tayyor kiyim" zanjiri to'laqonli shakllandi. Bugun ushbu zamonaviy tizimda 1200 dan ortiq xotin-qiz, yoshlar doimiy ish bilan band.

Ahamiyatli, agroklasterning cho'l sharoitidagi paxtachilikda erishgan natijasi butun respublika fermerlari uchun ilg'or tajriba maktabi vazifasini o'tamoqda. O'tgan mavsumda paxtadan o'rtaacha 50-55 sentner hosil olindi. 27 fermer esa tajribali ustozlar ko'magida har gektardan 85 sentnergacha hosil olishga erishdi. Ana shu tajribani keng ommalashtirish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Mirzacho'l innovatsion qishloq xo'jaligi azamat maktabi" tashkil etildi. Joriy yilda respublika bo'yicha 1000 nafar fermer ushbu maktabda o'qitilishi belgilangan.

Agroklasterning Xitoy va Germaniyadan 31,5 milliard so'mlik uskunalar keltirilgan. Ular ko'magida kalava ipdan yagona texnologik jarayonda sifatli va eksportbop matolar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda, — deydi agroklaster bosh hosiolti Muzaffar Zayniddinov. — Shuningdek, yangi haydov traktorlari va paxta terish mashinalari xarid qilindi. Joriy yilda chigitni qayta ishlab zavodi va mato bo'yash sexi ishga tushirildi. Natijada qo'shimcha 300 ta, jami 1500 ta doimiy ish o'rni ochildi. Mahalliy mahsulotlarimizning "Made in Uzbekistan" yorlig'i bilan jahon bozoriga yo'l oloyatganidan esa haqli ravishda faxrlaniladi.

2025-yilda Jizzax viloyatida to'qimachilik va trikotaj sohalarida ishlab chiqarish hajmi 5,1 trillion so'mga yetkazildi. Ya'ni jami sanoat ishlab chiqarish hajmida ushbu tarmoq ulushi 16,5 foizni tashkil etdi, — deydi viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi Sarvar Abdullayev. — Buning natijasida viloyatimizda yengil sanoat sohada asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi. 2026-2027-yillarda sohani yanada rivojlantirish maqsad qilingan. Buning uchun aniq raqamlar orqali vazifalar belgilab olingan. Jumladan, kalava ipni qayta ishlab darajasini 30 foizdan 50 foizgacha oshirmoqchimiz. Shuningdek, 81 ming tonna tola, 81,7 ming tonna kalava ip, 42,6 ming tonna trikotaj mato, 17 million kvadrat metr gazlama, 11,9 million juft paypoq, 57 million dona tikuv mahsuloti ishlab chiqarilishiga erishmoqchimiz. Shu orqali eksport hajmini 75 million dollarga yetkazish reja qilingan. Marrani zabt etish yo'lida mahalliy va xorijlik sarmoyadorlarni hamkorlikka chorlaganimiz. Hozir zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar barpo etilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida Jizzaxni mamlakatning yengil sanoatdagi asosiy eksport hududlaridan biriga aylantirish maqsad qilingan.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda yurimizdagi ishlohtlar o'zining aniq va barqaror natijasini bermoqda. Bu, o'z o'rnida, mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va "Made in Uzbekistan" brendining jahon bozorida mavqei yanada mustahkamlashga xizmat qilaypti.

Farhod NE'MATOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Aeroport hududida kuniga 50 tonna yukni qayta ishlab imkoniyatiga ega zamonaviy yuk terminali ham barpo etilmoqda. Ushbu majmua orqali 90 ta mamlakatga mahsulot eksport qilish imkoniyati yaratiladi. Eng muhimi, vodik hududida yagona kargo tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bu esa Namanganning agrar, sanoat va hunarmandchilik mahsulotlarini jahon bozoriga tez va samarali yetkazib berishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Logistika zanjirining qisqarishi mahsulot tannarxini pasaytirib, raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Demak, aeroport modernizatsiyasi faqat transport masalasi emas, balki iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining muhim bo'g'inidir.

### Brendlar va drayverlar

Viloyatda turizmni diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy gastronomik turizm markazlarini shakllantirish, hududiy brendlarni ilgari surish, agroturizm va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash ana shu sa'y-harakatlarning amaliy ifodasi.

Namangan brendlari — "Chortoq" mineral suvi, shirmoyon, Chust pichog'i nafaqat

xalq amaliy san'ati va tarixiy merosi bilan ham yaqindan tanishadi.

### Sifat va ishonch omili

Sayyohlikning istiqbolli yana bir yo'nalishi tibbiyot turizmidir. Namangan shahridagi Ziyokor mahallasida joylashgan "Buran EKV" reproduktiv salomatlik markazi bu boradagi dastlabki amaliy qadamlar natijasi.

Klinika Germaniyadan olib kelingan ilg'or tibbiy texnologiyalar va zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Ayni paytda muassasada malakali 25 shifokor va tibbiyot xodimi faoliyat yuritmoqda. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini, texnik jihozlarning darajasi va bemorlar uchun yaratilgan sharoitlar tibbiyot tizimini rivojlantirish uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

Reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, oilaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va sog'lom avlod tug'ilishiga xizmat qilish bugun nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan xususiy sektordagi zamonaviy klinikalar faoliyati hududning investitsiyaviy jozibadorligini ham oshirishga xizmat qilmoqda. — Tizimli ishlohtlar barqaror taraqqiyot kafolatidir, — deydi viloyat hokimi o'rinbosari Botirjon Nuriddinov. — Namangandagi bunyodkorlik ishlari alohida-alohida loyihalar yig'indisi emas. Ular o'zaro bog'langan, tizimli va strategik yondashuvga asoslangan ishlohtlardir. Aeroport modernizatsiyasi tashqi aloqalarni kuchaytirish, kargo tizimi eksportni kengaytirish, gastronomik va madaniy markazlar turizm jozibadorligini oshirish, zamonaviy tibbiyot muassasalari esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa bo'lib qo'shildi.

Eng muhimi, bu o'zgarishlar ortida inson omili — tadbirkorlar tashabbusi, mutaxassislar salohiyati va hudud rabariyatining qat'iyati turibdi. Natijada Namangan nafaqat vodik, balki butun mamlakat miqyosida yangi iqtisodiy va sayyohlik markazi sifatida shakllanib bormoqda.

Ochiq osmon ostidagi darvoza — aeroportdan boshlangan taraqqiyot yo'li hududning yangi qiyofasi, yangi imkoniyatlari va yangi istiqbollarni namoyon etmoqda.

Odilon INOMOV,  
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi



Munosabat

# XALQNING OG'IRINI YENGIL QILISH — KATTA MAS'ULIYAT

Bugun O'zbekiston taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ushbu jarayonning markazida inson qadri va uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash masalasi turibdi. Prezidentimiz raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalarini faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishi barcha bo'g'indagi rahbarlar, xususan, oliy ta'lim muassasalari mutasaddilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, mamlakatimiz aholisi 38 milliondan oshib, odamlar dunyoqarashi va ehtiyoji o'zgarayotgan bir paytda boshqaruv tizimi ham ana shu shiddatga mos ravishda yangilanishi shart. Endi rahbarlik faoliyatining eng asosiy ko'rsatkichi qog'ozdagi raqamlar emas, balki xalqning hayotdagi roziligi va muammolarning qay darajada yechim topayotganidir.

Aholi murojaatlari bilan ishlashda masalalarni “muhim” va “ikkinchi darajali”ga ajratish — eng katta xato. Inson uchun boshiga tushgan muammo eng ustuvor masaladir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, murojaat ortida inson taqdiri va davlatga ishonchi turganini har bir mutasaddi yurakdan his qilishi shart. Yuzaki javob berish yoki muammoni quyi tizimga yo'naltirib, mas'uliyatdan qutulish vaqti o'tdi.

## Integratsiya

2026-yilning Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e'lon qilinishi biz, ilm-fan vakillari zimmasiga ham ulkan vazifalar yukladi. Farg'ona davlat universiteti jamoasi mazkur islohotlarni targ'ib etish va amaliy ko'mak berish maqsadida “Kuchli mahalladan kuchli jamiyat sari” g'oyasini asosiy mezon qilib belgiladi.

Universitetimiz nafaqat ta'lim maskani, balki viloyat mahallalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda faol ko'makchi (drayver) sifatida maydonga chiqmoqda. Farg'ona shahridagi 17 ta mahalla universitetga birlashtirilib, birgina joriy yilning o'tgan davrida qilingan ishlar raqamlarda emas, insonlar taqdirida o'z aksini topdi. Xususan, mahallaboy ishlash tizimi doirasidagi sa'y-harakatlar aniq yo'nalishlarda natija bermoqda.

Jumladan, o'tkazilgan 60 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy tadbirga 2300 dan ortiq yosh qamrab olindi. Natijada ularning 46 nafari sport, robototexnika va xorijiy tillar to'garaklariga bepul jalb etildi. Universitet psixologlari va pedagoglari aralashuvi bilan nizoli 13 ta, ajrashish yoqasiga kelib qolgan 7 ta yosh oila



**Kadrlar tayyorlash jarayonini bozor talablariga moslashtirish uchun mahallabay ishlash tizimini dual ta'lim bilan bog'ladik. Bugun 11 ta'lim yo'nalishi bo'yicha 984 talabamiz bevosita ishlab chiqarish va korxonalar bilan uzviy bog'langan holda tahsil olmoqda.**

yarashtirilib, mustahkamligi ta'minlandi. Shuningdek, OTM professor-o'qituvchilari ishlab chiqqan 75 ta loyihaning 23 tasi hayotga tatbiq etilishi orqali 213 fuqaroning bandligi ta'minlandi, 42 nafariga esa imtiyozli kreditlar olishda amaliy yordam ko'rsatildi. Farg'ona viloyatining Oltiriq, Toshloq va Yozyovon tumanlaridagi mahallalarda 60 dan ortiq yangi sanoat va xizmat ko'rsatish loyihalari shakllantirildi. Tikuv-trikotaj, mebelsozlik va gulchilik yo'nalishlarida 1000 dan ortiq yangi ish o'rni ochish bo'yicha aniq takliflar ilgari surildi.

## Ta'lim va sanoat hamkorligi: dual ta'lim modeli

Kadrlar tayyorlash jarayonini bozor talablariga moslashtirish uchun mahallabay ishlash tizimini dual ta'lim bilan bog'ladik. Bugun 11 ta'lim yo'nalishi bo'yicha 984 talabamiz bevosita ishlab chiqarish va korxonalar bilan uzviy bog'langan holda tahsil olmoqda. Ushbu tizimning afzalik-

lari haqida gapirganda bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan talabalarimizning fikrlari e'tiborga molik.

— Dual ta'lim tizimi biz uchun ulkan imkoniyatlar ehsigini ochdi, — deydi Farg'ona shahri “Mash'al” mahalla fuqarolar yig'indagi “Dilrabo travel” oilaviy korxonasida faoliyat yuritayotgan talabamiz O'lmasjon Madaminov. — Ilgari faqat auditoriyada nazariy bilim olish bilan cheklangan bo'lsak, hozir kunning birinchi yarmini universitetda o'tkazib, ikkinchi yarmida korxonada zamonaviy texnologiyalar bilan ishlaymiz. Bu tizim menga nafaqat bilimlarimni amalda sinash, balki o'qishni bitirmasdan qayta tayyor ish joyiga ega bo'lish imkonini berdi. Eng muhimi, Prezidentimizning har bir inson taqdiriga, uning ertangi kuni va bandligiga befarq emashligini amalda his qilyapmiz.

## Islohotlar asosi

“Har bir insonning muammosini bilish” tamoyili universitetimiz hayotida ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Xususan, 2025-yil sentyabr-noyabr oylarida o'tkazish an'angaga aylangan “Rektor va yoshlar” uchrashuvlari doirasida 1-bosqichda o'qituvchan 5540 talaba bilan bevosita muloqot o'rnatildi. Ochiq muloqotlarda yoshlarning ta'lim sifati, ma'naviy-ma'rifiy va moddiy ta'minot bilan bog'liq 70 dan ziyod taklifi universitetimiz maxsus “yo'l xaritasi”ga kiritilib, ijrosi qat'iy nazoratga olindi.

Ushbu takliflar asosida boshlagan ishlarimiz bugun ijobiy natija bermoqda. Iqtisodiyot fakulteti kampusi va 7-talabalar turar joyi kapital ta'mirlanib, zamonaviy andozalarga moslashtirildi. Talabalar turar joylaridagi “Besh tashabbus” xonalari 80 ta yangi sport jihozi va 10 ta tikuv mashinasi bilan boyitildi.

Axborot-resurs markazi fondi 7667 ta yangi o'quv adabiyoti, talabalar turar joylaridagi kutubxonalar esa 1200 ta badiiy kitob bilan ta'minlandi. Iqtidorli 550 talabamiz uchun yurtimizdagi qadimiy shaharlarga sayohatlar uyushtirildi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida “To'maris izdoshlari”, “Amir Temur vorislari” sport musobaqalari hamda “Talaba bahori”, “Eng yaxshi teatr studiyasi” kabi ijodiy tanlovlar muntazam o'tkazilyapti. Bu kabi muloqotlar talabalarning nafaqat sifati ta'lim olishi, balki muammolari ham rahbarlarning diqqat markazida ekanini amalda his qilishiga xizmat qilmoqda.

Xalqning roziligi — islohotlarimizning bosh maqsadi va eng oliy mukofoti. Zero, rahbarning haqiqiy reytingi qog'ozdagi hisobotlarida emas, balki u hal etgan muammolar va xalqning ko'zidagi minnatdorlikda namoyon bo'ladi. Prezidentimiz ko'rsatib bergan “Qarshi tajribasi” asosida biz ham mahallalarni nafaqat istiqomat joyi, balki zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiyalar maskaniga aylantirish yo'lida barcha salohiyatimizni safarbar etamiz.

**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, Farg'ona davlat universiteti rektori**



Mulohaza

Insoniyat tamadduni bugun o'z taraqqiyotining eng nozik va hal qiluvchi pallasida turibdi. Global miqyosda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslar keskin kamayishi va ekologik muvozanat buzilishi dunyo hamjamiyati oldiga kechiktirib bo'lmaz vazifalarni ko'ndalang qo'ymoqda. Aynan shunday tahlikali bir davrda mamlakatimizda ona tabiatni asrab-avaylash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak e'tibor barchamizda kelajakka ishonchni mustahkamlaydi.

# “YASHIL” PEDAGOGIKA

## UNI O'Z VAQTIDA TAKOMILLASHTIRISH DAVR TALABI

Ekologik muammolarni faqat ma'muriy yo'l, ya'ni jarimalar yoki taqirlar orqali hal etib bo'lmaydi. Bunga erishishning yagona va eng samarali yo'li yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat hamda daxldorlik hissinin tarbiyalashidir. Shu ma'noda, ekologiya sohasidagi ishlar aholini yaxshilash har bir fuqaroning vijdon ishi va burchi sanaladi.

Shu o'rinda mamlakatimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi kabi yo'nalishlar bo'yicha yetakchi tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida belgilanishi sohada fundamental o'zgarishlarga zamin yaratishini ta'kidlash lozim. Ushbu dargohda “sirkulyar iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilishi resurslarni tejash va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirgan yangi avlod mutaxassislarini shakllantirishga xizmat qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida “yashil texnikumlar” tashkil etilishi esa o'rta bo'g'in mutaxassislarida ham ekologik ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Ta'lim tizimidagi bu kabi islohotlar shunchaki yangi fanlarning kiritilishi bilan cheklanib qolmaydi. Tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo'nalishlaridagi davlat oliy ta'lim tashkilotlarida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani hamda o'quv dasturlari joriy etilishi bo'lajak muhandis, iqtisodchi yoki moliyachini har qanday loyihani amalga oshirishda ekologik oqibatlarini hisobga olishga undaydi. Davlat buyurtmasi asosida aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda grant o'rnlari bosqichma-bosqich oshirilib borishi, shuningdek, “Elyurt umidi” jamg'armasi tomonidan nufuzli xorijiy oliyog'ohlarda ekologiya yo'nalishida tahsil olish uchun maxsus kvotalar ajratilishi davlatimizning intellektual salohiyatini “yashil” taraqqiyotga yo'naltirayotganidan dalolatdir.

Ayni shu nuqtada zamonaviy pedagogikaning yangi va o'ta muhim yo'nalishi — “yashil” pedagogika tushunchasi kun tartibiga chiqadi. Bu shunchaki o'quvchilarga tabiatni asrash kerakligini uqtirish emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining butunlay yangicha falsafasidir. “Yashil” pedagogika insonlar va jamoalarga ularni o'rab turgan atrof-muhit haqida chuqur bilim olishga, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga va eng muhimi, tabiat bilan uyg'unlikda yashash madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan yondashuv sanaladi. Mazkur pedagogik oqim XXI asming global chaqiriqlariga javob bera oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

“Yashil” pedagogika tarixi va rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, uning ildizlari Vena shahridagi Agrar va atrof-muhit pedagogikasi universiteti kollegija borib taqalishini ko'ramiz. Dastlab qishloq xo'jaligi, ekologik va pedagogik amaliyotlarni o'zaro bog'lash usuli sifatida ishlab chiqilgan ushbu tizim o'quvchilarda tabiatga nisbatan mustahkam va qat'iy munosabatni shakllantirishga qaratilgan edi. Garchi jahon ilmfanida ushbu yo'nalishning tan olinishi va keng



**Bekzod XO'JAYEV, pedagogika fanlari doktori, professor**

yo'yilishi oson kechmagan bo'lsa-da, bugungi kunda u barqaror taraqqiyotning eng muhim omillaridan biriga aylandi. “Yashil” pedagogika konstruktivizm, eksperimental ta'lim va konseptual o'zgarish kabi mashhur nazariyalarga tayanadi va ularni yangi mazmun bilan boyitadi. Xususan, konstruktivizm nazariyasi “yashil” pedagogikada o'quvchining hamkorlik, muhokama va tahlil orqali yangi bilimlarni mustaqil kashf etish jarayonida namoyon bo'ladi. Kolbning eksperimental ta'lim nazariyasi esa



tajribalar orqali o'rganishni uzluksiz jarayonga aylantirishni ko'zda tutadi. Ya'ni o'quvchi shunchaki nazariy ma'lumotni eshitmaydi, balki muammoni dekonstruksiya, rekonstruksiya va refleksiya qilish orqali o'zlashtiradi. Bu jarayonda o'quvchi passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga, muammolar yechimini izlovchi ijodkorga aylanadi. Konseptual o'zgarish nazariyasi esa o'quvchilardagi mavjud noto'g'ri qarashlarni aniqlash va ularni ilmiy asoslangan yangi tushunchalar bilan almashtirishga xizmat qiladi.

“Yashil” pedagogikaning o'ziga xosligi shundaki, u fanlararo yondashuvni talab etadi. Tabiatdagi jarayonlar hech qachon alohida-alohida kechmaganidek, ta'limga ham fanlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolishi lozim. Jorgenson ta'bir bilan aytganda, bu o'qituvchilarni darslarda ekologik ta'lim berishga chorlaydigan, o'quvchilarni esa kundalik hayotda atrof-muhitni himoya qilishga jalb etadigan o'zgaruvchan ta'limdir. Bunda situativ ta'lim, virtual o'qitish, autentik topshiriqlar va loyihaga asoslangan ta'lim strategiyalari qo'l keladi. O'quvchi o'zining kundalik talovlari — uydagi energiya sarfi, transportdan foydalanish yoki chiqindilarni saralash orqali global jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini anglab yetishi zarur.

“Yashil” pedagogikaning asosiy maqsadi yoshlarning his-tuyg'ularini rag'batlantirish va ona tabiatga nisbatan dunyoqarashini kengaytirish orqali ularning qadriyatlar tizimini o'zgartirishdir. Yuzaki o'rganishdan chuqur tafakkurga, qisqa muddatli manfaatdan uzoqni ko'zlab fikrlashga o'tish ushbu yondashuvning o'zagini tashkil etadi. Tafakkurni maqsadli yo'naltirish orqali o'quvchilar o'z xatti-harakatlarining tabiiy barqarorlikka ta'sirini ongli ravishda tushunadi.



Shunday qilib, maktabda yoki universitetda olingan bilimlar o'quvchining uyida, ish joyida va jamiyatdagi faoliyatida ekologik xavfsiz amaliyotlar shaklida aksini topadi. Bu esa BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ekologik xavfsizlik kompetensiyalari bilan hamohangdir.

Ushbu pedagogik yondashuv qator tamoyillarga asoslanadi: u pedagogik mazmunga nisbatan fanlararo yondashuv bo'lib, ekologik va iqtisodiy paradigmalarni birlashtiradi, kelajak muammolariga yechim topishga yo'naltirilgan, madaniy jihatdan sezgir va qadriyatlariga tayangan holda his-tuyg'ularni rivojlantiradi. Eng muhimi, “yashil” pedagogika amaliyot, hayot, tabiat va madaniyat uyg'unligiga qaratilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ham o'zgaradi — ular yagona maqsad yo'lida hamkorlik qiluvchi jamoaga aylanadi.

Ta'lim jarayonida “yashil” pedagogika qo'llanilishi har bir fanning mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, matematikani oylaylik: o'qituvchi shunchaki formulalarni yodlatish o'rni, o'quvchilarga o'z olinmagun uglevod izini hisoblashni yoki ekologik xavfsiz binolar loyihasi smetasi tuzishni topshirishi mumkin. Bu orqali o'quvchi nafaqat matematik amallarni bajaradi, balki o'z turmush tarzining tabiatga ta'sirini raqamlarda ko'radi va tahlil qiladi. Tabiiy fanlar darslarida sinfxonadan tashqariga chiqib, mahalliy bog' yoki o'rmonga uyushtirilgan dala sayrlari o'quvchilarga ekotizimlar, simal va hayvonot dunyosini bevosita kuzatish hamda his qilish imkonini beradi. Kitobdagi rasmdan ko'ra o'z ko'zi bilan ko'rgan va qo'li bilan ushlangan narsasi bola xotirasida umrbod muhrlanadi hamda unda tabiatni asrash istagini uyg'otadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar ham bundan mustasno emas. Tarix yoki ijtimoiy fanlar o'qituvchisi o'quvchilar bilan iqlim o'zgarishining insoniyat tarixidagi o'rni, sivilizatsiyalar inqirozi va ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni muhokama qilishi mumkin. Ingliz tili darslarida

global ekologik muammolarga doir maqolalarni o'qish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi. “Yashil” pedagogika o'quvchilarga qog'oz, suv va energiya resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash hamda kompost tayyorlash kabi oddiy, ammo hayotiy zarur ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu bilimlarning barchasi jamlanib, jamiyatda ekologik madaniyat yuksalishiga olib keladi.

“Yashil” pedagogikaning oltita asosiy yo'nalishi — hamkorlik orqali jamoa shakllanishi, refleksiya, kutilmagan vaziyatlarga tayyorlik, faol harakat, bezovtalik va his-tuyg'u — ta'lim-tarbiya jarayonini jonli organizmga aylantiradi. Ayniqsa, “bezovtalik” tushunchasi bu yerda ijobiy ma'noda, ya'ni atrof-muhit taqdiri uchun qayg'u va loqayd bo'lmalik mazmunida tushuniladi. O'quvchi tabiatga yetkazilayotgan zararni ko'rib, befarq o'tib keta olmaydigan, aksincha, vaziyatni o'nglash uchun harakatga tushadigan shaxsga aylanadi. Bu esa “yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat hissinin tarbiyalash” g'oyasining amaldagi ijrosidir.

“Yashil” pedagogika transdisiplinariik, chiziqli paradigmalarni qayta qurish, tizimli fikrlash va meta fikrlash kabi poydevorlarga tayanadi. Tizimli fikrlash o'quvchilarga dunyoni uzqu-yuluq bo'laklar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq murakkab tizim sifatida ko'rishni o'rgatadi. Masalan, bir joyda daraxtning kesilishi nafaqat o'sha hududning ko'rkinini buzishi, balki tuproq tarkibiga, havo sifatiga, yer osti suvlariga va yerdagi yashovchi jonzorlarga qanday ta'sir qilishini tushunish tizimli fikrlash mevasidir. “Yashil” pedagogika o'quvchilarni murakkab va noaniq kelajakka tayyorlaydi, ularda nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

Shu o'rinda aytish mumkin, mamlakatimizdagi islohotlar, xususan, oliy ta'limni tizimli transformatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-xalqiy fazilatlariga ega kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan yangi O'zbekiston uchun nafaqat yuqori texnologiyalarni egallagan, balki qalbi toza, vijdoni uyg'ov va tabiat bilan do'st bo'lgan avlod suv va havodek zarur. “Yashil” pedagogika aynan shunday avlodni yoqiga yetkazishda qudratli vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

“Yashil” pedagogika tamoyillarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi sahifa ochadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki jamiyatimizning ma'naviy qiyofasini ham tubdan o'zgartiradi. Zero, o'z uyini, mahallasini va yurtining tabiatini asragan inson vatanni ham chin yurakdan sevadi va ardoqlaydi. “Yashil” pedagogika har qanday fan sohasida va har qanday yoshda qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal kalitdir. U o'quvchi yoshlarni hamda butun jamiyatimizni ekologik xavfsiz, barqaror va farovon kelajak sari yetaklovchi mash'ala bo'lib qoladi. Biz bugun ekoyotgan “yashil ta'lim” urug'lari ertaga serhosli mevalarini berishi, O'zbekistonimizning yanada gullab-yashnashiga hamda mas'uliyatli barqarorlikka xizmat qilishi muqarrar. Bu yo'lida barcha ziyolilar, ustoz-murabbiylar va keng jamoatchilikning hamijihatdagi har qachongidan ham muhimroq.





2026-yil 18-mart, 52-son

**6** MEZON

**Tabiat uyg'olib, dov-daraxtlar kurtak yozgan maskanda tashkil etilgan bayram bahor sayillariga aylanib ketdi. U uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar, ijodkor yoshlar va nuroniylarni bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Bayram dasturlari doirasida 100 dan ortiq turli ko'rgazma namoyish etildi.**



## Yoshlar ijodiyoti festivali

**O'qchi qishlog'i O'zbekiston tumanining janubiy sarhadida joylashgan ajib maskanlardan. Atrofi turfa mevali bog'lar bilan o'ralgan bu qishloqda bahor o'zgacha fayzu tarovat kasb etadi.**

# Navro'z — ko'klam salomi

**Ko'zlarimiz yashnatib bahor keldi, bahorim, Navro'z keldi, yam-yashil izhor keldi, bahorim.**

**Varrak to'la osmonda, sumalak doshqozonda, Gul ochilib har yonda, takror keldi, bahorim.**

**Soylar — zangori daftar, bulutlar — oq kabutar, Tizilishib turnalar, qator keldi, bahorim.**

**Yurakdan urgan sirlar, yuzlari alvon qirlar, Biram xushbo'y atrlar, ifor keldi, bahorim.**

**Tilga kirdi og'ochlar, qalamqosh qaldirg'ochlar, Ikki ko'zi qiymochlar, dildor keldi, bahorim.**

**Biram dilbar, dilorom, lolalar — ishq to'la jom, Shabnamlar — shaffof payg'om, iqror keldi, bahorim.**

**Jilg'alarda zo'r shitob, oy suzar, oydin xitob, Yulduzlar — sirlil kitob, asror keldi, bahorim.**

**Kuyga to'la gul mavsum, yellar tinmaydi bir zum, Quyosh — nurli tabassum, sharor keldi, bahorim.**

**Navro'z — ko'klam salomi, yuksak inson maqomi, Tinchlik, do'stlik ayyomi, alyor keldi, bahorim.**

G'ayrat MAJID

# O'rik gullaganda...

Mayin shabada gullagan o'rik va bodom iforini dimoqqa eltadi. Tanga xush yoqovchi quyoshning iliq nurlari endi nish urayotgan kurtaklarga jon bag'ishlab jilvalanadi. Maysalar ko'kargan qiradirlarda qo'zichoqlarning ma'rashi eshitiladi. Qish bo'yi ko'klamni sog'inib kutgan qishloq aholisi bahorgi yumushlarini boshlab yuborgan. Dala-dashlar oppoq libos kiygandek ko'zni qamashiradi. Bularning barchasi dillarga bahor va Navro'z shukuhini joylaydi.

Farg'ona bog'larida bahor nafasi ana shunday o'zgacha fayzu tarovat bilan boshlanadi. Keyingi yillarda bu an'ana yangicha ruh va ko'tarinkilik bilan davom etmoqda. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan o'tkazib kelinayotgan "O'rik gullaganda" yoshlar ijodiyoti festivali bu borada yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Tabiat uyg'olib, dov-daraxtlar kurtak yozgan maskanda tashkil etilgan bayram bahor sayillariga aylanib ketdi. U uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar, ijodkor yoshlar va nuroniylarni bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Bayram dasturlari doirasida 100 dan ortiq turli ko'rgazma namoyish etildi. Milliy hunarmandchilik namunalarini, xalq amaliy san'ati, rassomlar ijodi, xalq og'zaki ijodiyoti, kitoblar va liboslar ko'rgazmasi o'tkazildi. Xalq dastalari, madaniyat markazlarining ansambllari hamda xushovuz xonandalar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar ko'ngillarga bahoriy kayfiyat ulashdi. Bahorning an'anaviy taomi bo'lgan sumalak va ko'katli noz-ne'matlar bayram dasturxoniga o'zgacha ko'rk bag'ishladi.

Navro'z asrlar davomida bahor, egzulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutib keladi. — deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Sherzod Polvonov. — Ana shunday egzu qadriyatlar tufayli yurtimizda aholi manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, mehnat va e'tibordan chetda qoldirmaslik, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifamizga aylandi. Bu yilgi festival muborak Ramazon oyining mehnat-saxovat amallariga



Sherzod QORABOYEV olgan suratlari.

hamohang tarzda o'tayotgani bilan e'tiborni tortadi. Festival doirasida mehnat-saxovat an'analarini yanada bardavom bo'lib, har bir oila va xonadonga bahor shukuhini, Navro'z tarovatini kirib bormoqda.

"Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan egzu g'oyani o'zida mujassam etgan ushbu festival doirasida o'quvchilar o'rtasida bahor mavzusidagi rasmlar tanlovi hamda sport bellashuvlari o'tkazildi.

Biloliddin Ikromov O'zbekiston tumanidagi 38-maktabning 6-sinfida o'qiydi. U festival doirasidagi varrak uchrish bahslarida tengdoshlari bilan musobaqalashdi.

Festivalda o'zimiz tayyorlagan varrak bilan ishtirok etdim, — deydi Biloliddin. — Keng maydon uzra varrak uchrishning shukuhini o'zgacha bo'larkan. Tayyorlab kelgan varragim eng yuqori va uzoq uchgan varraklar qatoridan joy oldi. Eng muhimi, boshqa tengdoshlarim bilan do'stlashdim, varrak tayyorlash borasida o'zaro fikrlashdik, bilmaganlarimizni o'rgandik. Maqsadim — kosmonavt bo'lib, koinotga chiqish.

Tabiat go'zalliklariga yo'g'rilgan bog'lar qo'ynida turfa rasmlar chizayotgan yoshlarning

ijod namunalarini ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Oppoq qog'ozga qalam va moybo'yoqlar bilan tasvirlanayotgan tabiat manzaralari bir-birini takrorlamaydi. Har bir suratda yosh rassomlarning dunyoqarashi va o'y-fikrlari mujassam. O'rik gullari, yashil maysazorlar uzra chopqillab borayotgan beg'ubor bolalarning quvonch-shodliklarini har bir ijodkor o'ziga xos tarzda tasvirlagan e'tibor va e'tirofga loyiq.

Festivalda "Bahor shukuhini" nomli rasmlar to'plamini tayyorladim, — deydi Furqat tumanidagi 1-maktabning 5-sinf o'quvchisi Sevinch Maqsudova. — Har faslning o'z tarovatini, jozibasini bor. Ammo bahor alohida ajralib turadi. Maktabda o'qish bilan birga Furqat tumanidagi 12-bolalar musiqa va san'at maktabining rassomlik-haykaltaroshlik to'garagi a'zosi. Ustozlarim ko'magida ona tabiatning o'ziga xos manzaralarini tasvirlash, uni asrab-avaylash yo'lidagi sa'y-harakatlar va yashil olam go'zalliklarini ijodiy ishlarim orqali ko'rsatishga harakat qildim. Festival doirasidagi tadbirlarda nazariy bilimimni amaliyot bilan uyg'unlashtirdim, mahoratimni oshirdim. Bu meni yangi maqsad va ijodkorlikka undamoqda.

Festival xalqlar do'stligi va millatlararo tutuvlik bayramiga aylandi. Unda viloyatda faoliyat yuritayotgan milliy madaniyat markazlari vakillari hamda xorijlik mehmonlar ham ishtirok etdi.

O'zbekiston tumanidagi 21-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida ingliz tilidan dars beraman, — deydi festivalda ishtirok etayotgan filippinlik Magallon Riza Vallente. — Farg'onaning go'zal tabiati, mehmondo'st va dilkash kishilari qalbiga quvonch, shodlik tuyg'ularini olib kirmoqda. Go'yo o'z yaqinlarim bilan hamnafas bo'lib yashayotgandekman. Bugungi bayramdan juda katta zavq oldim, taassurotimni so'z bilan ifodalab berishga o'zimga. Milliy libosdagi yoshlar va nuroniylar, milliy taomlar, urf-odatlar yo'g'rilgan ko'rgazmalar hamda yoshlarning sa'y-harakati bilan yaqindan tanishdim. Ko'rganlarim va bilganlarimni, albatta, hamyurtlarimga yetkazaman, ularni turfa gullarga burkangan bu ajib o'lkaga sayohat qilish, mehmon bo'lishga chorlayman.

Dilidan shubhat qurayotgan dilbar onaxonlar va oppoq soqolli nuroniylar fayzli davraning to'ridan joy oldi.

Bahor kelsa, tolpopukdan soch tarab, qizlar bilan to'p-tosh o'ynadik, sumalaklar uchun yog'ochdan qoshiqlar tayyorladik. Ammo bugungidek katta bayramlarni ko'rmasam edik, — deydi Mahtufaxon Husanova. — Dasturxonimiz to'kin-sochin. Farzand va nabiralaramizni o'qitaymiz, uylar qurib, to'ylar qilyapmiz. Bularning barchasi yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, to'kinlik va farovonlik mahsulidir. Bu kunlarga shukrona qilyapmiz. Uch o'g'lim, kelinlarim va nabiralaram bilan keldik. Hammasi bir-biridan yaxshi, go'zal va betakror. Keksalikni unutib, miriqib o'ynab-yayradik.

Festival davomida qiyg'oz gullagan o'rikzorlar xalq laparlari, bolajonlar kulgisi va nuroniylarning duosi bilan yanada fayzli tus oldi.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

# TABIATNING UZVIY HALQASI

## Xalqaro qizil kitobdan joy olayotgan o'simliklar

### Ekologik muvozanat

Keyingi yillarda qizg'in tus olgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar o'lkamiz florasiga mansub yana yuzdan ortiq o'simlikni Qizil kitobga kiritish lozimligini ko'rsatmoqda. 1998-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yildagi yangi nashrdan 48 oilaga mansub 314 turdagi o'simlik o'rin olgan.

Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan, kamyoblik darajasiga ko'ra, to'rtta maqom berilgan.

Birinchisi yo'qolgan yoki yo'qolib ketganligi ehtimol qilingan o'simliklar bo'lib, unga bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin yig'ib olish qiyin bo'lgan ayrim joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoli mavjud turlar kiradi.

Ikkinchisi — yo'qolib ketish arafasida turgan o'simliklar. Yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

Uchinchisi — kamyob turlar. Bu muayyan kichik maydonlardagina va o'ziga xos sharoitda saqlab qolingana, ammo qisqa davrda yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan, ayni paytda jiddiy nazoratni talab etuvchi turlarga muvofiq keladi.

To'rtinchisi son jihatdan kamayib borayotgan o'simlik turlari sanaladi. Bunga



soni va tarqalgan maydonlari muayyan vaqt ichida tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson omili ta'siri ostida kamayib ketayotgan turlar kiradi.

Buxoro tuyatovoni ham O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Termiz davlat universiteti yosh ilmiy tadqiqotchilarining sa'y-harakatlari natijasida yaqinda bu noyob o'simlik Xalqaro qizil kitobga ham kiritildi.

Buxoro tuyatovoni Janubiy Pomir-Oltov hududining past tog'larida tarqalgan kamyob endemik tur hisoblanadi. U asosan O'zbekiston va Turkmaniston chegarasi qismidagi Ko'hitang tog' tizmasida, Surxondaryoning quyi oqimi bo'yida, shuningdek, Turkmaniston va Janubiy Tojikiston hududlarida uchraydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra,

— Buxoro tuyatovoni Janubiy Pomir-Oltov hududining past tog'larida tarqalgan kamyob endemik tur hisoblanadi. U asosan O'zbekiston va Turkmaniston chegarasi qismidagi Ko'hitang tog' tizmasida, Surxondaryoning quyi oqimi bo'yida, shuningdek, Turkmaniston va Janubiy Tojikiston hududlarida uchraydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra,

bu o'simlikning hozirda bor-yo'g'i 4 ta populyatsiyasi yoki taxminan 60 tupi qolgan, — deydi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Rustam O'rolov.

Mazkur o'simlik turining Xalqaro qizil kitob (IUCN Red List) ga kiritilishi Surxondaryo tabiati va hudud mahalliy olimlari mehnatining jahon miqyosida yana bir e'tirof etilishini anglatadi. Hozir termizlik tadqiqotchilarining uning tarqalishi, aholisi, yashash muhiti va genetik turilligi bo'yicha batafsil ma'lumotlar to'plab, himoya choralarini va monitoring tizimlarini yaratmoqda. Bu esa turni saqlash va kelajakda ko'payishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022-2026-yillarda dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maxsus yer maydonlari ajratilishi belgilangan.

Dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish

maqsadida respublikamiz tumanlari qizilmiya, za'faron, kavrak, lavanda, steviya, moychechak, na'matak, ravoch, mavrak, dalachoy, tog'rayhon, bo'yimodaron, kiyik o'ti, kovul, qalampir, yalpiz va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida ixtisoslashtirilishi belgilangan.

Surxondaryoda ham kavrak o'simligi bo'yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Natijalar mahalliy iqlim hamda tuproq sharoitlari ushbu dorivor o'simlikni madaniy holda yetishtirish uchun qulay ekanini ko'rsatdi.

Kavrak Kichik Osiyo, Yaqin Sharq va Osiyoning boshqa ko'plab davlatlarida ziravor sifatida, shuningdek, farmatsevtika sanoatida, o'simlik zararkunandalari qarshi kurashda qo'llaniladi. Bu dorivor g'iyoh, asosan, MDH davlatlari, Hindiston, Afg'oniston, Pokiston, qisman Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi. Kavrak yurtimizda tog' va adirlarda ko'p uchraydi. Surxondaryo ham uni yetishtirish uchun qulay sharoitli viloyatlardan biri. Keyingi yillarda viloyatda kavrak yetishtirish bilan shug'ullanayotganlar va undan yaxshigina daromad olayotganlar safi ham ortib boryapti, — deydi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Abdunazar Sharipov.

Surxondaryo viloyatining boy tabiati, flora va fauna dunyosini asrab-avaylashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bu kabi kamyob o'simlik turlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish, tabiatimizni muhofaza qilishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

**Sarvar TO'RAYEV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-346. 31346 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 02:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.